

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**M.M. KURGANBEKOV, A. MOYDINOV**

**REDUKTORLARNING  
POG'ONALAR BO'YICHA UZATISH  
NISBATINI OPTIMAL TAQSIMLASH**

*O'quv qo'llanma*

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2011

**UDK: 621.81(075)**

**34.445**

**K94**

**Reduktorlarning pog'onalar bo'yicha uzatish nisbatini optimal taqsimlash.** O'quv qo'llanma / M.M. Kurganbekov, A. Moydinov: – T.: «Fan va texnologiya», 2011-y. 72 b.

ISBN 978-9943-10-565-2

O'quv qo'llanmada reduktorlar bo'yicha umumiy ma'lumot, ularning turlari bo'yicha asosiy parametrlarini aniqlash hamda pog'onalar bo'yicha uzatish nisbatini optimal taqsimlash tartibi keltirilgan. Qo'llanma talabalarga tushunarli bo'lishi uchun unda reduktor uzatish nisbatlarini hisoblash bo'yicha misollar keltirilgan.

O'quv qo'llanma kurs loyihasini bajarishda kinematik hisob bo'yicha talabalarga optimal variantlarni topishda qo'l keladi.

*Taqrizchilar:* t.f.d., professor Rizayev A.A.,  
t.f.n., dotsent Orifxo'jayev S.A.

**UDK: 621.81(075)**

**ББК 34.445**

*Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy Kengashi qaroriga  
asosan nashr etildi.*

ISBN 978-9943-10-565-2

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2011-y.  
© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2011-y.

---

## KIRISH

«Mashina detallari» fanidan kurs loyihasi kinematik hisobdan boshlanadi. Kinematik hisobdan asosiy maqsad yuritma uchun elektrosvigatel tanlash va yuritmani pog'onalar bo'yicha uzatish nisbatini to'g'ri taqsimlash.

Kurs loyihasidagi yuritmalarda albatta, yopiq va ochiq uzatmalar bo'ladi. Yopiq uzatmalar reduktorlar ko'rinishida tayyorlanadi. Ikki pog'onali reduktorlarning uzatish nisbatini optimal taqsimlash konstruktor-loyihachi va talabalarda katta qiyinchilik tug'diradi. Ikki pog'onali uzatmalarni uzatish nisbatini optimal taqsimlashda har bir pog'ona tezyurar va sekinyurar pog'onalarning aniqlanadigan uzatish nisbatlari reduktorlarning gabarit o'lchamlarini minimallashtirish sharti bilan bog'liq bo'ladi.

«Mashina detallari» fanidan kurs loyihasi bo'yicha mavjud adabiyotlarning ko'pchiligidagi, ya'ni rus va o'zbek tilida nashr qilinganlarida ham uzatish nisbatlarini optimal taqsimlash uchun zarur uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalar berilmagan. Bor ma'lumotlar ham bir-biriga zid ko'rinishda, ayrim talablarga hisobga olib tuzilgan. Bu bor ma'lumotlar tizimlashni, ulardan to'g'ri foydalananish uchun bataysil sharh va misollarni talab qiladi. Ayniqsa, bu muammo talabalar uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Chunki agar loyihalovchi konstruktor avvalgi va ishlab chiqarish tajribalariga asoslansa, o'z-o'zidan tabiiy, bunday tajriba va malaka talabalarda yetishmaydi.

Xususan, adabiyotlar yetishmasligi sababli, bu muammo o'zbek guruhlari talabalari uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Mana shu muhazalar asosida rus tilidagi uzatish nisbatlarini optimal taqsimlash bo'yicha mavjud adabiyotlar asosida ushbu o'quv qo'llanma tayyorlandi.

Qo'llanma uch bobdan iborat bo'lib, uning asosiy mavzusi va mazmuni yuritma pog'onalarida joylashgan ikki pog'onali reduktorlarning uzatish nisbatlarini optimal taqsimlash masalasiga va uni hal qilish yechimlariga bag'ishlangan.

Qo'llanmaning birinchi bobida reduktorlar va motor-reduktorlar bo'yicha umumiylar sharh, ularning belgilanishi to'g'risida ma'lumotlar

keltirilgan. Bu ma'lumotlarda reduktorlarning turlari uchun uzatish nisbatlarining oraliq qiymatlari hamda ularning tavsiya etiladiganlari keltirilgan.

Optimallashtirish uchun zarur bo'lgan parametrlar izohlangan. Reduktorlarning asosiy parametrlarining standart qiymatlari keltirilib, ularni tanlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Ikkinchi bobda reduktor pog'onalarini bo'yicha urnumiy uzatish nisbatini taqsimlash bosqichlari, ya'ni ketma-ketligi yoritilgan. Bunda asosiy reduktor turlari bo'yicha zarur matematik ifodalar va ular asosida yechilgan misollar keltirilgan.

Qo'llanmaning uchinchi bobida yuritmada yopiq uzatma reduktor bilan birga ochiq tasmali va zanjirli uzatmalar bo'lgan hollar uchun uzatish nisbatlarini taqsimlash tartibi va aniq misollar keltirilgan.

Qo'llanmaning so'ngida talabalar mavzuni tushunishida yordam berish uchun tayanch atamalar bo'yicha izohli lug'at glossariy keltirilgan.

Qo'llanma mexanik ixtisoslikdagi talabalar uchun «Mashina detallari» fanidan kurs loyihasini bajarishda qo'l keladi.

Qo'llanmada tushuntirish xati, formulalar va shakllarda T, S, va O indekslari bilan tezyurar, sekinyurar, oraliq uzatma va vallarga tegishli ko'rsatkichlar (uzatish nisbati, o'qlararo masofa va sh.k.) belgilangan.

---

## I BOB. REDUKTORLAR VA MOTOR-REDUKTORLAR

### 1.1-§. Reduktorlar va motor-reduktorlarning umumiyligi sharhi hamda belgilanishi

**Reduktor** – aylanishlar chastotasini kamaytirib, aylantiruvchi momentni ko'paytiradigan mexanizm.

Ishchi mexanizmga o'rnatiladigan tishli uzatmalardan reduktorlarning prinsipial farqi ular tugallangan mexanizm bo'lib, dvigatel va ishchi mashinalar bilan muftalar yoki boshqa ajraladigan qurilmalar yordamida biriktiriladi.

Reduktor korpusida vallarga qotirilgan tishli yoki chervyakli uzatmalar joylashadi. Vallar korpus uyalarida joylashadigan podshipniklarga o'rnatiladi. Ko'pincha reduktorlarda dumalash podshipniklari qo'llaniladi.

Reduktoring turi uzatmalar tarkibi, ularning tezyurar valdan sekinyurar val yo'nalishida joylashish tartibi va fazoda tishli g'ildiraklar o'qlarining holati bo'yicha aniqlanadi. Uzatmalarni belgilash uchun kirill alifbosining katta harflaridan foydalaniлади: S-silindrik, P-planestar, K-konussimon, Ch-chervyakli, G-globoidli, V-to'lqinson (V ruscha «волновая»). Agar bir xil uzatmalar ikki va undan ko'p bo'lsa, harfdan keyin tegishli raqam qo'yiladi.

Vallari gorizontal tekislikda joylashgan reduktorlar eng ko'p tarqalgan. Chervyakli va globoid reduktorlarda ular gorizonttal bo'lgani uchun vallar ayqash joylashadi. Bu asosiy tur (gorizontal joylashish) maxsus belgilashga ega emas. Agar hamma vallar bir vertikal tekislikda joylashsa, turni belgilashga V indeksi qo'shiladi. Agar sekinyurar val o'qi vertikal bo'lsa (ruschasiga «тихоходный вал»), unda T indeksi, tezyurar val o'qiga (ruschasiga «быстроходный вал») B indeksi qo'shiladi. Masalan KS2<sub>VT</sub> - uch pog'onali konussimon silindrik reduktor, bir uzatmasi konussimon, ikki pog'onasi silindrik uzatma bo'lib, reduktoring hamma vallari vertikal tekislikda joylashgan, tezyurar valning o'qi vertikal, qolgan vallar o'qi gorizontal joylashgan.

Motor-reduktorlarda odatdag'i belgilashga oldinda M harfi qo'shiladi. **Masalan** MKS2<sub>VT</sub> belgisi avval ta'riflangan reduktor bazasidagi motor-reduktorni bildiradi.

Reduktoring tur o'chamini belgilashda uning turi va sekinyurar pog'onasining asosiy parametrlaridan foydalilanadi. Silindrik, chervyakli va globoid uzatmalarda asosiy parametr o'qlararo masofa bo'ladi; planetar uzatmada – yetaklagich radiusi, konussimon uzatmada – g'ildirak bo'luvchi konusi asosining diametri, to'lqinsimon uzatmada – deformatsiyalanmagan holda elastik podshipnik o'rnatiladigan tashqi diametri bilan mos keladigan elastik g'ildirakning ichki o'rnatiladigan diametri.

Tayyorlanishi deb uzatish nisbati, yig'ish varianti va vallar uchining shakli tushuniladi. Agar tayyorlanish yagona bo'lsa, bu holda reduktor maxsus bo'lib, uni yig'ishga belgilanish kiritilmaydi.

Sekinyurar pog'onaning o'qlararo masofasi 200 mm va uzatish nisbati  $i = 63$  bo'lgan reduktoring tur o'chamni quyidagicha belgilanadi: KS2<sub>VT</sub>-200-63.

Reduktoring yig'ilishi GOST 20373-80 bo'yicha belgilanadi.

Xohlagan tayyorlanishning o'zgarishi reduktoring eng muhim unifikatsiyalashtirilgan detali – korpusga tegishli bo'lmaydi. Korpusning o'zgarishi esa amalda reduktor turining o'zgarishini bildiradi.


## 1.2-§. Silindrik reduktorlar

Silindrik reduktorlar faqat silindrik tishli uzatmalardan yig'iladi va pog'onalar soni hamda vallarining holati bo'yicha farq qiladi. Ilashma turi, tishli g'ildiraklar enining koefitsienti  $\psi_a = \frac{b_w}{a_w}$ , podshipniklar turlari va shu kabilar reduktoring turini belgilamaydi, faqat konstruktiv o'ziga xosliklar bo'ladi.


**Bir pog'onali reduktorlar.** Bir pog'onali reduktolarning komponovka sxemalari o'ta cheklangan bo'lib, asosan fazoda vallar o'qlarining joylashishiga bog'liq bo'ladi. Aksariyat hollarda ilashma qiya tishli, ba'zan – to'g'ri tishli,  $a_w \geq 800$  mm reduktorlarda odatda shevron tishli ilashma bo'ladi.

Uzatish sonlarining oralig'i –  $u = 1,6 \div 8$ , g'ildirak enining koef-sienti –  $\psi_a = 0,25 \div 0,5$ ; shevron tishli uzatmalarda –  $\psi_a \leq 1$ ; qiya tishli uzatmalarda tishning qiyalik burchagi  $\beta = 8 \div 20$  bo'ladi.

1.1-shaklda gorizontal (S), 1.2-shaklda vertikal (S<sub>V</sub>) reduktorlar ko'rsatilgan.




1.1-shakl. Silindrik bir pog'onali gorizontal reduktor:  
a-kinematik sxema; b-umumiy ko'rinishi



1.2-shakl. Silindrik bir pog'onali vertikal reduktor:  
a-kinematik sxema; b-umumiy ko'rinishi

**Ikki pog'onali reduktorlar.** Silindrik ikki pog'onali reduktorlar odatda yoyilgan, ikkilangan yoki o'qdosh sxemalarda tayyorlanib, quvvat bir, ikki yoki uch oqimda taqsimlanishi mumkin.

Eng ko'p tarqalgani yoyilgan sxema (1.3-shakl). Bu sxema bo'yicha tayyorlangan reduktorlar o'ta texnologik va kichik enli bo'ladi.



1.3-shakl. Silindrik ikki pog'onali yoyilgan sxemadagi  
gorizontal reduktor:


a-kinematik sxeması; b-umumiy ko'rinishi

Silindrik ikki pog'onali yoyilgan sxemadagi reduktorni S, S3, KS, KS2, ChS turdag'i reduktorlar bilan oson va ratsional unifikatsiyalash mumkin.

Ikki pog'onali reduktorlarning uzatish nisbati oralig'i –  $i = 7,1 \div 50$ ; tavsiya etiladigani –  $i = 8 \div 40$ . Boshqa parametrlar xuddi bir pog'onali reduktorlarniki kabi bo'ladi.

1.4-shaklda tezyurar pog'ona ikkilangan reduktorlar (S2Sh «цилиндрическая широкая») ko'rsatilgan. Bu reduktorlar yoyilgan sxemadan yengil, lekin enliroq, ularni unifikatsiyalash imkoniyati cheklangan.


Tezyurar pog'ona oralig'i kengaygan shevrondan iborat, sekin yurar pog'ona  $a_{wc} \leq 710$  mm gacha bo'lqanda qiya tishli uzatma,  $a_{wc} \geq 800$  mm da shevron uzatma bo'ladi. Sekinyurar pog'onani ikkiga bo'lish maqsadga muvofiq emas.




1.4-shakl. Silindrik ikki pog'onali tezyurar pog'onasi  
ikkilangan gorizontall reduktor:  
a-kinematik sxemasi; b-umumiy ko'rinishi

Uzatish nisbatlarining oralig'i xuddi yoyilgan sxemaniki kabi bo'ladi. Sekinyurar pog'onaning kenglik koeffitsienti –  $\psi_{as} = 0,4 \div 0,5$ ; tezyurar pog'onaning har bir yarim shevronini kenglik koeffitsienti –  $\psi_{a1} = 0,5\psi_{as}$ . Sekinyurar qiya tishli pog'ona tishining qiyalik burchagi –  $\beta = 8^\circ \div 20^\circ$ , shevronnniki –  $\beta = 25^\circ \div 45^\circ$ .

Ikki pog'onali quvvati bir oqim bo'yicha bo'lgan o'qdosh reduktor o'lchamlari va massasi bo'yicha ikkilangan reduktorga yaqinroq bo'ladi, lekin uzatish nisbatini 25% ga ko'proq qilish imkonini beradi. O'qdosh gorizontall reduktor (S2S) 1.5-shaklda ko'rsatilgan, 1.6-shaklda esa vertikal o'qdosh reduktor (S2S<sub>V</sub>) tasvirlangan. O'qdosh sxema bunday reduktoring komponovkalash imkonlarini cheklaydi. Vazifasi o'xshash bo'lgan planetar reduktorlar (P2) ga nisbatan ularning massasi bir xil, gabarit o'lchamlari ko'proq, eng katta uzatish nisbati esa kam bo'ladi, konstruksiya jihatdan ular soddaroq, tishli g'ildiraklar tishlarining soni kam va tayyorlanishi nisbatan osonroq.



1.5-shakl. Silindirik ikki pog'onali o'qdosh gorizontal quvvati  
1 oqimli reduktor:  
a-kinematik sxemasi; b-umumiy ko'tinishi



1.6-shakl. Vertikal o'qdosh reduktor sxemasi

Asosiy parametrlari bo'yicha o'qdosh reduktorlar yoyilgan sxemadagi reduktordrlarga yaqinroq. Tezyurar pog'onaning kenglik koefitsienti odatda sekinyurarnikidan kam. Quvvati uch oqimli o'qdosh reduktorlar murrakabroq, oqimlar bo'yicha yuklanishni tenglashtiruvchi qurilma yoki yuqori aniqlik talab qiladi. Ularni qo'llash faqat katta burovchi moment uzatganda maqsadga muvofiq bo'ladi. Planetar reduktorlarning keng tarqalishi munosabati bilan ularidan foydalanish sohalari kamayib bormoqda.

**Uch pog'onalı reduktorlar.** Bu reduktorlar ko'pincha yoyilgan yoki ikkilangan reduktorlar asosida tayyorlanadi. O'qdosh sxema asosida yaratilgan uch pog'onalı reduktor o'qdosh bo'lmanan tezyurar va sekinyurur vallarga ega bo'ladi. Tor tezyurar pog'ona konstruksiyasini ratsional qilib yaratish qiyin. Bunday reduktorlar kam qo'llaniladi.

Yoyilgan sxema bo'yicha tayyorlanganda vallar o'qlarini bir ajralish tekisligida joylashtiriladi. Bu texnologik jihatdan qulay, lekin reduktoring uzunligi va massasini oshiradi. Tezyurar pog'onani pastda ajralish sirtiga burchak ostida joylashtirish biroz qiyinroq, lekin uzunlik va massani kanaytirish imkonini beradi. Bunda ikki pog'onalı reduktoring korpus detalini unifikatsiyalashtirish (bir xillash) mumkin, bu esa kam seriyalarni ishlab chiqarishda qulay. Yoyilgan sxema asosidagi uch pog'onalı reduktorda tezyurar g'ildirakni oraliq pog'ona yarimshevronlari orasida o'rnatish qiyin va qiya tishli uzatmani tezyurar pog'onada qo'llash mumkin emas. Buning sababi shundan iboratki qiya tishli uzatmaning o'q bo'ylab yo'nalgan kuchi oraliq pog'onaning yarimshevronlari orasida yuklanishning notekis taqsimlanishiga olib keladi. Shu sababli tezyurar pog'onada shevron uzatma qo'llanadi. Yoyilgan sxemadagi uch pog'onalı reduktorlar faqat og'ir mashinasozlikda qo'llaniladi.

Uzatishlar nisbati oralig'i –  $i = 25 \div 250$ , lekin, odatda,  $i = 31,5 \div 180$  olinadi, qolgan parametrlari xuddi ikki pog'onalı reduktornikni kabi bo'ladi.

**Ko'p pog'onalı reduktorlar.** Yoyilgan sxemadagi ko'p pog'onalı reduktorlar uch pog'onalilar turi kabi konstruktiv tayyorlanadi.


Hamma vallarning bir tekislikda joylashishining asosiy kamchiligi reduktoring katta uzunligi va korpus hajmidan yomon foydalanish. Shu sababli ko'pincha ko'ppog'onalı reduktornarni «yig'ilgan» qilib tayyorlanadi, bunda ular eng kam hajmni egallaydi.

### 1.3-§. Konussimon reduktorlar

Zamonaviy konussimon reduktornarning g'ildiraklari doiraviy tishli qilib tayyorlanadi. Shesternada manfiy o'q bo'yicha yo'nalgan kuch shesternani ilashmaga siqb qo'yadi, uning oldini olish uchun tishli g'ildirak aylanish yo'nalishi va tish qiyaligining yo'nalishini bir xil olish kerak.

Uzatishlar sonining oralig'i –  $u = 1 \div 6,3$ , lekin  $u \geq 5$  bo'lsa, iloji boricha qo'llamagan ma'qul. Agar reduktorda  $u$  lar to'plamining hammasini qo'llash zarur bo'lsa, ikki korpusni ishlatishni ko'zda tutish kerak:  $u = 1 \div 2,8$  da «enli» (KSh) va  $u = 3,15 \div 5$  da «ensiz» reduktor (K) bo'ladi. Bunday unifikatsiyadan chetga chiqish K turidagi ensiz reduktorlar massasini ikki barobar kamaytiradi. Kenglik koeffitsienti o'zgarmas:  $\psi = b/R_e = 0,285$ . Bu yerda:  $R_e$  – konuslik masofasi. Kenglikni  $R_a = 40$  qatori bo'yicha me'yoriy uzunliklarga yaxlitlab olish natijasida amalda  $\psi = 0,27 \div 0,3$  oralig'ida bo'ladi.


G'ildirak o'rtaida tishning qiyatik burchagi  $\beta_m = 35^\circ$  bo'lishi maqsadga muvofiq.



1.7-shakl. Konussimon tishli g'ildirakli bir pog'onali reduktor:  
a-kinematik sxemasi; b-umumiy ko'rinishi

G'ildirakni tayanchlar orasida, shesternani esa konsol qilib joylashtirish maqsadga muvofiq. Shesternani tayanchlar orasida joylashtirish ancha qiyin, lekin bu holat reduktor uzunligini kamaytirishga olib keladi.

1.7 va 1.8-shakllarda gorizontal enli (KSh) va sekinyurar g'ildiragi vertikal bo'lgan (KShvs) konussimon reduktorlar tasvirlangan.



1.8-shakl: Sekinyurar g'ildiragi vertikal bo'lgan konussimon keng reduktor:


a-kinematik sxemasi; b-umumiy ko'rinishi

#### 1.4-§. Konussimon-silindrik reduktorlar

Konussimon-silindrik reduktordarning pog'onalar soni va komponovkasidan qat'i nazar, konussimon pog'onasi tezyurar qilib tayyoranadi. Bunday uzatmaning parametrлari xuddi konussimon tor (ensiz) reduktorlar kabi bo'ladi. Silindrik pog'onalarning parametrлari yoyilgan sxemadagi silindrik reduktorlarnikiga o'xshash bo'ladi. Uzatish nisbatlari –  $i = 8 \div 31,5$ .


Konussimon-silindrik reduktordarning komponovka imkoniyatlari juda keng.

**Ikki pog'onali reduktorlar.** 1.9-shaklda bunday reduktoring asosiy turi—gorizontal (KS) ko'rsatilgan; aralashtirgichlar, burilish mexanizmlari va sh.k. yuritmalarida ishlataladigan sekinyurar g'ildiragi vertikal bo'lgan konussimon-silindrik reduktorlar (KS<sub>VS</sub>) ratsional hisoblanadi (1.10-shakl).



1.9-shakl. Konussimon-silindirik ikki pog'onali gorizontal reduktor:


*a*-kinematik sxemasi; *b*-quyma korpusli reduktoring umumiy tasviri;  
*d*-payvand korpusli reduktoring umumiy ko'rinishi



1.10-shakl. Konussimon-silindirik sekinyurar vali vertikal bo'lgan ikki pog'onali reduktor:


*a*-kinematik sxemasi; *b*-umumiy ko'rinishi

Agar tezyurar valni yuqoriga  $90^\circ$  burilsa, unda  $KS_T$  turdagি reduktor hosil bo'ladi (1.11-shakl). Bu reduktor asosida vertikal joylashgan M300 flanetsli dvigatelli MKS<sub>VT</sub> motor-reduktorini yaratish quiyay. Agar hamma vallar vertikal tekislikda joylashsa, MKS<sub>VT</sub> motor-reduktori hosil bo'lib, u kam yuzani talab qiladi.




1.11-shakl. Konussimon-silindrik ikki pog'onali tezyurar vali vertikal bo'lgan reduktor

**Uch pog'onali reduktorlar.** Bu reduktor ikki pog'onaliga yana bir sekinyurar pog'onani qo'shib tayyorlanadi, bu esa umumiy uzatish nisbatini  $i = 25 \div 140$  gacha oshiradi. Uch pog'onali uzatimalarning parametrlari xuddi ikki pog'onaliniki kabi bo'ladi.



1.12-shakl. Uch pog'onali konussimon silindrik gorizontal reduktor:  
a)-kinematik sxemasi; b)-umumiy ko'rinishi


Uzatmada o‘zaro joylashish variantlari soni uch pog‘onali reduktorlarda ikki pog‘onali reduktorlardan ko‘proq, lekin ularning hammasi ham ratsional emas. 1.12-shaklda reduktorlarning asosiy turi gorizontal (KS2) tasvirlangan. Bu reduktorlarning komponovkalash imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun 1.13- shaklda KS2S-o‘qdosh reduktor tasvirlangan.



1.13-shakl. Konussimon-silindrik uch pog‘onali silindrik pog‘onasi o‘qdosh bo‘lgan gorizontal reduktor

### 1.5-§. Planetar reduktorlar

Planetar reduktorlarning turlari ko‘p, lekin mashinasozlikda oddiy planetar reduktor (1.14-shakl) ko‘p tarqalgan.



1.14-shakl. Planetar reduktorlar sxemalari:  
a-bir pog‘onali; b-ikki pog‘onali

Oddiy planetar reduktor-quyoshli g'ildirak 1, satellitlar 2 (ularning soni, odatda, uchta bo'ladi) va korpusda qo'zg'almas qotirilgan gardish 3 dan tashkil topadi. Bir necha planetar reduktordan ketma-ket ulab, kerakli pog'onali va zarur uzatish nisbatli reduktor hosil qilish mumkin.

Quyoshli g'ildirakning tayanchi bo'lmaydi va u tezyurar val bilan tishli musta orqali ulanadi, bu hol shesternaga satellitlar orqali o'zi o'mashishiga yordam beradi va oqimlar bo'yicha quvvatning tekis taqsimlanishini ta'minlaydi. Aksariyat hollarda to'g'ri tishli ilashma ishlataliladi. Satellitlar ko'pincha sferik podshipniklarda o'matiladi, bu esa tishli gardish eni bo'yicha yuklanishning tekis taqsimlanishini ta'minlaydi.

Planetar reduktordan asosida motor-reduktordan (MP) tayyorlanadi. Ko'pincha planetar uzatmalarni oddiy silindrik uzatmalar bilan qo'shib ishlataliladi.

**To'lqinsimon uzatmalar.** To'lqinsimon uzatmalar planetar uzatmalarning bir turi hisoblanadi.

Mashinasozlikda ikki to'lqinli qo'zg'almas bikr g'ildirakli to'lqinsimon uzatmalar ko'p tarqalgan.


To'lqinsimon reduktordan asosiy afzalliklari: katta uzatish nisbati (bir pog'onada 315 gacha), ilashmaning ko'p juftligi sababli (g'ildirakning hamma tishlarini 25% gacha) yuqori yuklanish qobiliyati, yuqori kinematik aniqlik, valga tushadigan yuklanishning kamligi, kichik nisbiy massa (oddiy planetar reduktordan ikki barobar kam). uzatish nisbati  $i = 80 \div 315$  oralig'ida ancha yuqori foydali ish koefitsienti –  $\eta = 0,9 \div 0,7$  bo'ladi.

### 1.6-§. Chervyakli reduktordan


Chervyakli reduktordan bir pog'onada katta uzatish nisbatini amalga oshirish imkonini beradi. Yuqori vibroakustik xususiyatlari tufayli hamma lift lebedkalari faqat chervyakli reduktordan bilan jihozlanadi.

Lekin foydali ish koefitsienti kichik va xizmat resursi tishli reduktordan kam bo'lgani uchun to'xtovsiz harakatlanadigan mashinalarda ularni qo'llash tavsiya etilmaydi.


Komponovkalash imkoniyatlari chervyakning fazoda joylashish holatiga bog'liqligi uchun cheklangan bo'ladi (1.15-1.17-shakllar).




*a)*




*b)*



*d)*




*e)*




*f)*

1.15-shakl. Chervyagi pastda joylashgan chervyakli reduktor:  
*a*-kinematik sxemasi; *b*-ajraladigan korpusli reduktorming umumiy ko'rinishi;  
*d*- ajraladigan korpus qovurg'ali va tabiiy sovutiladigan reduktorming umumiy  
 ko'rinishi; *e*-qopqog'i olingan reduktorming umumiy ko'rinishi; *f*-ajralmaysigan  
 korpusli reduktorming umumiy ko'rinishi




1.16-shakl. Chervyagi yuqorida joylashgan chervyakli reduktor:  
*a*-kinematik sxema; *b*-ajraladigan korpusli reduktoring umumiy ko'rinishi;  
*d*-ajralmaydigan korpusli reduktoring umumiy ko'rinishi



1.17-shakl. Sekinyurar g'ildiragi vertikal bo'lgan chervyakli reduktor:

*a*-kinematik sxemasi; *b*-ajraladigan korpusli reduktoring umumiy ko'rinishi;  
*d*- ajralmaydigan korpusli reduktoring umumiy ko'rinishi

Ba'zan sekinyurar mashinalar yuritmasi uchun juda katta uzatish nisbatlari kerak bo'ladi. Bunday holatda uzatish nisbati 400 ga yetadigan ikki pog'onali chervyakli reduktorlar ishlatalish hisobiga amalga oshiriladi (1-18-shakl).



1-18-shakl. Ikki pog'onali chervyakli reduktor:

a-kinematik sxemasi; b va d-variantlarning umumiy ko'rinishi


Ikki pog'onali chervyakli reduktorni bir korpusda tayyorlash qiyin. Yaxshisi bir pog'onali reduktorlardan foydalangan ma'qul. Bunda sekinyurar reduktor chervyagining shlitsali uchi tezyurar reduktor kovak sekinyurar valiga o'tqaziladi va buralib ketmasligi uchun mahkamlab qo'yiladi.

Bunday variantni tayyorlash ancha qulay va arzon bo'ladi.

### **1.7-§. Chervyakli-silindrik va silindr-chervyakli reduktorlar**


Bu reduktorlar ikkala turining ham tezyurar va sekinyurar valarining joylashishi ortogonal bo'lib, o'xshash komponovka sxemalariiga ega.

Chervyakli-silindrik reduktor tezyurar chervyakli pog'onali (parametlari oddiy bo'lgan) va bir (ChS) yoki ikki (ChS2) parametlari yoyilgan sxemadagi silindrik reduktor kabi silindrik pog'onalarga ega bo'ladi. Bu reduktor juda katta uzatish nisbatli va past darajadagi shovqinli bo'ladi. Chervyak odatda pastda joylashib (1.19-shakl), bu ilashmani moylash, chervyak podshipniklarning joylashishi va yig'ish sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi.



1.19-shakl. Chervyakli-silindrik ikki pog'onali reduktor  
*a*-kinematik sxemasi; *b*-umumiy ko'rinishi

Silindr-chervyakli reduktorlar (SCh) ikki pog'onali qilib tayyorlanadi (1.20-shakl). ChS reduktoriga nisbatan ularning uzatish nisbatlari kam, shovqini ko'proq bo'ladi.




1.20-shakl. Silindr-chervyakli reduktor:  
*a*-kinematik sxemasi; *b*-umumiy ko'rinishi

### **1.8-§. Motor-reduktorlar**


Prinsipial jihatdan motor-reduktorlar yuqorida ko‘rilgan reduktor turlarining asosida tayyorlanishi mumkin, amimo ko‘pincha bir korpusda yoki blokli qilib tayyorlangan o‘qdosh sxemada qo‘llanadi. Birinchi holda reduktor va motor (dvigatel) statori bir korpusda joylashtiriladi, bu esa gabarit o‘lchamlarini kamaytirib, motor-reduktor tashqi ko‘rinishini yaxshilaydi, lekin uning ta’mirlashga yaroqliliginini kamaytiradi.

Ikkinci holda motor-reduktoring ikkala qismi bloklardan iborat bo‘lib, flanetslar yordamida biriktiriladi.

Motor-reduktorlarning eng ko‘p tarqalgan tipik vakillari 1.21 va 1.22-shakllarda ko‘rsatilgan.



1.21-shakl. Bir pog‘onali motor-reduktor



1.22-shakl. Ikki pog'onali o'qdosh motor-reduktor

### 1.9-§. Reduktorlarning asosiy parametrlarini tanlash

Reduktorlarning asosiy parametrlariga quyidagilar kiradi: ularning bosh parametrlari (o'qlararo masofa, yetaklagich radiusi, konussimon g'ildirak bo'luvchi konusi asosining diametri); uzatish nisbatlari va soni; kenglik koefitsienti; modullari; tishning qiyalik burchagi; chervyak diametrlerining koefitsientlari.

Bosh parametrlarni hamma hollarda ham quyidagi yagona qatordan tanlash lozim:

25; 28; 32; 36; 40; 45; 50; 56; 63; 71; 80; 90; 100; 112; 125; 140; 160; 180; 200; 224; 250; 280; 315; 355; 400; 450; 500; 560; 630; 710.

Reduktorlarning uzatish nisbatlari va ularning pog'onalarini bo'yicha uzatish sonlari quyidagi yagona qatordan tanlanishi tavsiya etiladi (nominal qiymatdan chetga chiqish  $\pm 4\%$ ):

1,00; 1,12; 1,25; 1,40; 1,60; 1,80; 2,00; 2,24; 2,50; 2,80; 3,15; 3,55; 4,00; 4,50; 5,00; 5,60; 6,30; 7,10; 8,00; 9,00; 10,00; 11,2; 12,5; 14,0; 16,0; 18,0; 20,0; 22,4; 25,0; 28,0; 31,5; 35,5; 40,0; 45,0; 50,0; 56,0; 63,0; 71,0; 80,0; 90,0; 100; 112; 125; 140; 160; 180; 200; 224; 250; 280; 315; 355; 400; 450; 500; 560; 630; 710; 800; 900.

Katta uzatish nisbati olish talab qilinganda qator yana davom etirilishi mumkin.

Kenglik koeffitsienti (tishli gardishning ishchi kengligi – enining bosh uzatma parametriga nisbati) ni quyidagi qatordan tanlash tavsiya etiladi: 0,063; 0,08; 0,10; 0,125; 0,16; 0,20; 0,25; 0,315; 0,40; 0,50; 0,63; 0,80; 1,00; 1,25.

Planetar va chervyakli reduktorlar uchun Ra20 qatoridan soy-dalanishga ruxsat etiladi.

**Silindrik reduktorlar.** Reduktor qo'shni pog'onalarining o'qlararo masofasining nisbati ushbu qatordan olinadi: 1,12; 1,25; 1,4 va 1,6. 1,12 dan kam nishbatda tezyurar g'ildirak sekinyurar valga tegib qoladi. Nisbat 1,6 dan katta bo'lganda konstruktiv gabarit o'chamlari va massasi bo'yicha reduktor noratsional bo'ladi. Nisbatning konkret keng pog'onalar bo'yicha qiymatlarini reduktor uzatish nisbatlarini taqsimlashda aniqlanadi.

Hozir texnikalarda g'ildirak tishlarining qattiqligi ortishi bilan egilish bo'yicha zarur mustahkamlikni ta'minlash uchun modullarni oshirish va natijada bir pog'onada uzatish nisbatini kamaytirish kuzatilmoqda.

Modullarning oshishi bir pog'onadagi eng katta uzatish sonini kamaytiradi (1.1-jadval).

### 1.1-jadval

Bir pog'onadagi eng katta uzatish sonlari

Uzatma pog'onasi	Qattiqligi	$u_{max}$
Hamma reduktorlardagi sekinyurar va oraliq	HB ≤ 350	6,3
	HRC 40–56	6,3
	HRC 56–63	5,6
O'qdosh reduktordan bo'lak hamma reduktorlardagi tezyurar	HB ≤ 350	8
	HRC 40–56	7,1
	HRC 56–63	6,3
O'qdosh reduktorlardagi tezyurar	HB ≤ 350	10
	HRC 40–56	9
	HRC 56–63	8
Ochiq	HB ≤ 350	25

1.2-jadvalda kenglik koeffitsienti  $\psi_a = b/a_w$  ning tavsiya etiladigan qiymatlari berilgan. Kichik qiymatlar sekinyurar pog'onaning uzatish soni  $u_S \geq 4$  bo'lganda, katta qiymatlari esa  $u_S \leq 4$  da qo'llanadi.

Hamma hollarda ham gardish kengligining shesterna diametriga nisbati  $\psi_d = b/d_1 = 0,5\psi_a(u+1)$  ni tekshirish zarur, u konsentratsiya koefitsienti  $K_\beta$  ga ta'sir etadi. Uzatma reduktor o'rta tekisligiga simmetrik bo'lganda holda –  $\psi_d \leq 1,5$ , simmetrik bo'lganda  $\psi_d \leq 1,8$  olinadi.

### 1.2-jadval

#### Kenglik koefitsientining qabul qilingan qiymatlari

Uzatmaning holati yoki turi	Qattiqligi	$\Psi_a$
– nosimmetrik	$HB \leq 350$ $HRC \geq 40$	$0,315-0,4$ $0,25-0,315$
– simmetrik	Istalgan	$0,4-0,5$
– orasi uzaytirilgan (enli) shevron	qiymatda	$0,2-0,25$
– ariqchali (ensiz) shevron		$0,63-1,0$

Kontakt mustahkamlik bo'yicha asosiy o'lchamlarni aniqlagach modulning qiymati hisoblab topiladi. Modulning o'qlararo masofaga nisbatining taxminiy qiymati quyidagicha: tishning qattiqligi  $HB \leq 350$  bo'lganda  $m_n/a_w = 0,01 \div 0,02$ ;  $HRC \geq 40$  da  $m_n/a_w = 0,016 \div 0,0315$ . Chidamlilik koefitsienti  $K_{HCh}$  kamayganda  $m_n/a_w$  nisbat oshadi.

Modul ushbu qisqartirilgan qatorдан tanlab olinadi: 0,1; 0,12; 0,15; 0,2; 0,25; 0,3; 0,4; 0,5; 0,6; 0,8; 1,0; 1,25; 1,6; 2,0; 2,5; 3,15; 4,0; 5,0; 6,3; 8,0; 10; 12,5; 16; 20; 25.

Chervyakli uzatmalar uchun bu modular yonbosh modul bo'ldi. 1 dan kichik modular faqat to'lginsimon reduktordorda qo'llaniladi.

Sanoatda ko'p tarqalgan reduktorlarda (planetarlar bundan mustasno), ko'p hollarda qiya tishli (ba'zan shevron tishli) uzatmalar qo'llaniladi, tishning qiyalik burchagi –  $\beta = 8^\circ \div 20^\circ$ , lekin iloji bo'lsa  $18^\circ$  dan oshirmslik kerak, chunki podshipniklarning yuklanishi bo'ylama o'q bo'yicha kuchlarning ortishi hisobiga o'sadi.  $\beta$  burchak o'q bo'yicha qoplanish koefitsienti  $\varepsilon_\beta$  orqali aniqlanadi, u esa 1,1 dan ko'p bo'lishi kerak. Agar tish bo'ylama modifikatsiya qilingan bo'lsa («bochkasimon tishlar») bu koefitsientini 1,25 dan kam olish tavsiya etilmaydi.

Agar uzatmalarga maxsus talablar qo'yilmasa, masalan, oraliq vallar o'q bo'ylab yo'nalgan kuchlarni qisqartirishi zarur bo'lsa, g'ildirak tishi o'ng yo'nalishda, shesternaniki esa chap yo'nalishda tayyorlanadi.

**Planetar reduktorlar.** Planetar uzatmaning bosh parametri – yetaklagich radiusi  $R_\omega$  yuqorida ko'rsatilgan 23-betdagi bosh parametrler qatoridan tanlanadi.

Radiuslar nisbati – 1; 1,12; 1,25; va 1,4 qatoridan tanlanadi. Ikki pog'ona radiuslarining tengligi bir qator konstruktiv va texnologik afzalliklarga ega bo'ladi, lekin reduktor diametri va uning massasini bir oz oshirib yuboradi. Reduktor massasini minimallashtirish uchun uning uzatishlar nisbatini taqsimlashda radiuslar nisbati topiladi.

Oddiy planetar uzatmaning uzatishlar nisbati –  $i = 3,15 \div 12,5$ , lekin ancha tor oraliq ( $i = 4 \div 10$ )da bo'lishi maqsadga muvofiq. Ikki pog'onali reduktorlarda mos ravishda oraliq  $i = 10 \div 125$  bo'ladi (maqsadga muvofiq'i  $16 \div 100$ ).

Kenglik koeffitsienti –  $\Psi_R = b/R = 0,4 \div 1$ . Uzatish nisbati oshishi bilan  $\Psi_R$  koeffitsient kamayadi.

Tish eni bo'yicha yuklanishning to'planishi (konsentratsiyasi) koeffitsienti  $K_\beta$  ni aniqlovchi parametr quyoshli g'ildirak enining diametriga nisbati  $\Psi_d = b/d_1$  bo'ladi, u 1,6 dan ko'p bo'lmasligi zarur. Kenglik koeffitsientlarining nisbati –  $\Psi_d = 0,25 \Psi_R \cdot i$ .

Planetar reduktchlarning moduli o'xshash silindrik reduktorlarnikidan o'rtacha 1,4 marta ko'p. Buning sababi shuki, planetar reduktor satellitlarining tishlarida hosil bo'luchchi kuchlanishlar simmetrik siklda o'zgaradi, silindrik reduktchlarning g'ildiraklarining tishlarida esa ancha yengilroq pulsatsiyalanuvchi siklda o'zgaradi.

Modulning yetaklagich radiusiga nisbatining taxminiy qiymatlari: quyosh g'ildiragi va satellitlar tishlarining qattiqligi  $HB \leq 350$  da  $m/R = 0,016 \div 0,025$  va  $HRC \geq 40$  da  $m/R = 0,025 \div 0,04$  bo'ladi.

Quyosh g'ildiragining tishlari soni  $z_1$  12 dan kam bo'lmasligi kerak.

Keltirilgan qiymatlар sekinyurar pog'onaga tegishli. Ikki pog'onali reduktchlarning tezyurar pog'onasida modul taxminan ikki barobar kam.

Sanoatda ko'p tarqalgan planetar reduktchlarning uzatmalari, odatda, to'g'ri tishli qilib tayyorlanadi, satellitlar sferik podshipniklarga o'rnatiladi, bu holat  $K_\beta$  koeffitsientni kamaytiradi.

**To'lqinsimon reduktorlar.** To'lqinsimon reduktchlarning bosh parametri deformatsiyalanmagan holdagi clastik g'ildirakning ichki o'rnatiladigan diametrini bosh parametrlnarning yagona qatoridan tanlanadi (23-betga qarang) va uni elastik zo'ldirli podshipnik tashqi diametrining amaldagi qiymati bilan belgilanadi.

Uzatishlar nisbatining oralig'i  $i = 63 \div 400$ , ammo odatda  $i = 80 \div 315$  oraliqdan foydaliladi.  $i$  ning kichik qiymatlarda elastik g'ildirakning zarur resursini ta'minlab bo'lmaydi, katta qiymatlarda esa tishlarning «sakrab» o'tish xavfi oshadi.

Kuch uzatadigan yuritmalarda kenglik koeffitsienti  $\psi = b / d$  ni 0,2 ga teng qilib olish tavsiya qilinadi.

**Konussimon reduktorlar.** Konussimon uzatmaning bosh parametri – g'ildirak bo'lувчи konusi asosining diametrini bosh parametrlar yagona qatori bo'yicha tanlanadi (23-bctda).

Ilashnianing geometrik o'lchamlari bilan moslashtirish uchun nominal o'lchamlarning chetga chiqishi  $\pm 2\%$  oralig'ida bo'ladi.

Eng katta uzatish sonlarining tavsiya qilinadigan qiymatlari 1.3-jadvalda berilgan.

### 1.3-jadval

Konussimon uzatmaning eng katta uzatishlar soni

Uzatma	Tishning qattiqligi	$u_{max}$
Yopiq	$HB \leq 350$ $HRC \geq 40$	6,3 5,0
Ochiq	$HB \leq 350$	8,0

Kenglik koeffitsientining hisobiy qiymati o'zgarmas  $\psi = b/R_{ye} = 0,285$  ga teng qilib olingan. Hisobiy kenglikni muvofiq sonlarini Ra40 qatoridan yaxlitlanib olinadi. Kenglik koeffitsientining haqiqiy qiymati  $0,27 - 0,30$  oralig'ida bo'ladi.

Konussimon doiraviy tishning shakli modulni to'g'ridan-to'g'ri hisob bilan aniqlashni qiyintashtiradi. Oldin g'ildirak tishlari soni  $z_2$  aniqlanib, so'ngra yonbosh modul  $m_e = d_{e2} / z_2$  ni hisoblash o'ng'ay. G'ildirakning tishlari soni empirik formula bilan hisoblanadi

$Z_2 \approx K \sqrt[5]{u^2} \sqrt[5]{d_{e2}}$ , bu yerda:  $u$  – uzatish soni;  $d_{e2}$  – g'ildirak bo'lувчи konusi asosining diametri. Hisoblangan  $z_2$  ning qiymati shesternaning tishlar sonini butun qilib olish maqsadida aniqlanadi –  $z_1 = z_2 / u$ . Bunda uzatish sonining o'zgarishi  $\pm 4$  foizgacha bo'lishi kerak.

## **Konussimon uzatmalarda standart modullarni qo'llash shart emas.**

To‘g‘ri tishli konussimon uzatmalarga nisbatan ko‘p yuklanish qobiliyatiga ega, kam shovqinli, tayyorlashda osonroq bo‘lgan doiraviy tishli konussimon g‘ildirakli uzatmalarni qo’llagan ma’qulroq. Doiraviy tishlarda kontaktning tish o‘rtasida lokalizatsiya qilinishi ularni tayyorlash va yig‘ish aniqligiga ta’sirchanligini kamaytiradi. Bu esa qattiq tishlarni qo’llashni osonlashtiradi. Doiraviy tishli uzatmalarniig kamchiligi – ularning reversida (harakat yo‘nalishi o‘zgarganda), o‘q bo‘yicha yo‘nalgan kuch qiymati va ishorasining o‘zgarishi. Tishning qiyalik burchagi  $\beta_m$  o‘rta kesimda, odatda,  $35^\circ$  gradus deb olinadi. Odatda, konussimon shesternalar – o‘ng tish, g‘ildiraklar – chap tish yo‘nalishi bilan tayyorlanadi.

Shesternada o‘q bo‘ylab yo‘nalgan kuchni konus uchidan assosiga qarab yo‘naltirilgan ma’qulroq. Buning uchun shesterna tishining yo‘nalishi spirali bilan uning aylanish yo‘nalishi mos kelishi kerak.

**Konussimon-silindrik reduktorlar.** Ikki pog‘onali reduktorda konussimon va silindrik pog‘onalar bosh parametrlarining nisbati  $d_{e2} / a = 1,12; 1,25$  va  $1,4$  bo‘ladi. Reduktorning umumiy uzatish nisbati oshganda  $d_{e2}$  kamayadi. Uch pog‘onali reduktorlarda bu nisbat saqlanadi.

Konussimon-silindrik reduktorlarning tezyurar pog‘onalari ensiz reduktorlarning konussimon uzatmalaridan, sekinyurar pog‘onalari esa – yoyilgan sxemadagi ular uchun odatdagagi bo‘lgan parametrli – ikki pog‘onali silindrik reduktorlarning sekinyurar uzatmalaridan tuziladi.

Konussimon uzatmalarni tayyorlashdagi katta texnologik qiyinchilik ularning uzatish sonlari bo‘yicha nomenklaturasini cheklaydi – ularni qisqartirilgan qator –  $3,15; 4$  va  $5$  dan tanlash zarur.

**Chervyakli reduktorlar.** Uzatmalarning bosh parametrini yagona qator bo‘yicha tanlab olinadi (23-bet). Ikki pog‘onali reduktor o‘qlararo masofasining nisbati odatda ikkiga teng bo‘ladi.

Bir pog‘onaning uzatish sonlari  $u = 8 \div 80$  oralig‘ida bo‘ladi, ammo, imkonи boricha  $63$  dan katta olish kerak emas, chunki uzatish sonining keyingi oshishida uzatmaning foydali ish koeffitsienti va yuklanish qobiliyati tez pasayib ketadi.  $u$  ning qiymatini  $Ra10$  qatordan tanlash maqsadga muvofiq.

Kenglik koeffitsienti  $\psi = \frac{b}{a}$  faqat ikki qiymatga ega – 0,355 va 0,315, birinchisi  $z_1$  (kirim) 1 va 2 bo‘lgan chervyak uchun, ikkinchisi 4 kirimli chervyaklar uchun qo‘llaniladi.

Chervyakli uzatmalarda yonbosh modullar standartlashtirilgan. Chervyak vint chizig‘ining ko‘tarilish burchagi  $\gamma$  – chervyak kirimlari soni  $z_1$  va diametr koeffitsienti  $q$  ga bog‘liq.

Chervyak diametri koeffitsientining qiymati – kesuvchi asboblar nomenklaturasini kamaytirish maqsadida standartlashtirilgan.  $q$  ning qiymatini ushbu qatordan tanlab olinadi: 7,1; 8,0; 9,0; 10,0; 11,2; 12,5; 14,0; 16,0; 18,0; 20,0; 22,4; 25,0.

Chervyakli uzatmalar asosiy parametlari maqsadga muvofiq qiymatlar to‘plami uzatish soni  $u$  ga bog‘liq ravishda 1,4-jadvalda keltirilgan. Bunda o‘qlararo masofanining qiymati Ra10 qatordan olingan.

#### 1.4-jadval

Chervyakli uzatmaning asosiy parametrlar qatori

$u$	$z_1$	$z_2$	$q$	$u$	$z_1$	$z_2$	$q$
8		32	8	20	2	40	10
10	4	40	10	25		50	12,5
12,5		50	12,5	31,5		32	8
16	2	32	8	40	1	40	10
				50		50	12,5
				63		63	16

Uzatmaning asosiy qatori uchun modul  $m \approx 1,6a_w/z_2$  bo‘ladi. Agar asosiy qatorni ishlatib bo‘lmasa, o‘qlararo masofa  $a_w$  va uzatish soni  $u$  uchun Ra20 qiymatlarini qo‘llagan ma’qul. Boshqa qiymatlarni qo‘llamagan ma’qul, chunki ular chervyak diametrining koeffitsientini juda katta qiymatiga va past foydali ish koeffitsientiga olib keladi.

Chervyak kirimlari soni  $z_1$  ni 1,2 va 4 sonlaridan tanlash kerak. G‘ildirak tishlarining soni  $z_2$  ni quyidagi qatordan tanlash kerak: 32, 36, 40, 45, 50, 56, va 63. Odatda, modul chervyakli uzatma yuklanish qobiliyatini belgilamaydi, uni geometrik ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi.

**Chervyakli-silindrik va silindr-chervyakli reduktorlar.** Chervyakli-silindrik uzatmalarda chervyakli va silindrik pog‘onalar o‘qlararo

masofalari nisbatini komponovkalashda mustahkamlik sharti bo'yicha 0,5 yetarli bo'lsa ham, odatda 0,63 qilib olinadi. Silindr-chervyakli uzatmalarda tezyurar va sekinyurar pog'onalar o'qlararo masofasining nisbati 0,4 – 0,5 ga teng bo'ladi. Tegishli motor-reduktorlarda shesternani dvigatel valida va dvigatejni reduktorda joylashtirish shartidan bu nisbatni 0,63 – 0,8 gach oshirish tavsiya etiladi.

Silindr-chervyakli reduktor tezyurar pog'onasi 2 dan 3,15 gacha uzatish soniga ega. Konsol joylashgan tishli g'ildiraklar uchun yuklanish konsentratsiyasini kamaytirish uchun ensiz g'ildiraklar tavsiya etiladi. Kenglik koeffitsienti –  $\Psi_a \leq 0,25$ . Motor-reduktorlarda silindrik pog'onaning o'qlararo masofasi konstruktiv kattalashgani uchun qattiq tishli silindrik g'ildiraklar qo'llanmaydi.

---

## II BOB.

### REDUKTOR POG'ONALARI BO'YICHA UMUMIY UZATISH NISBATINI TAQSIMLASH

#### 2.1-§. Reduktor uzatish nisbatini taqsimlash bosqichlari

Yuritmani umumiyligi komponovkalash – kinematik hisob jarayonida aniqlangan reduktor uzatish nisbatini taqsimlashdan maqsad optimallashtirishning zarur mezonlarini qanoatlantirish. Maxsus mezon, masalan, quyidagicha bo'lishi mumkin: mashinaning o'qi bo'ylab uzunasiga gabaritini kamaytirish va reduktorning kichikroq enini ta'minlash maqsadida umumiyligi qo'llanadigan reduktorlar uchun optimallik mezonini minimal massani ta'minlash bo'ladi.

Taqsimlashning **birinchi bosqichida** 2.1-jadvaldan pog'onalar soni tanlab olinadi.

Agar berilgan uzatish nisbati turli pog'onali reduktorlar bilan ta'minlab berilsa, unda quyidagi qoidaga rioya qilinadi: agar reduktorning balandligi, eni va massasi muhim ahamiyatga ega bo'lmasa, unda pog'onalar sonini kichik qilib olinadi, kichik uzunlikda reduktor oson tayyorlanadi va arzon bo'ladi; agar reduktorning balandligi, eni va massasi iloji boricha kichik bo'lishi talab etilsa hamda unda pog'onalar sonini kattaroq qilib olinsa, zamonaviy reduktorsozlikning an'analariga mos bo'ladi.

**Ikkiichi bosqichda** – kenglik koefitsienti tanlanadi, u reduktorning massasiga kam ta'sir etsa ham, lekin uning gabarit o'lchamlarini belgilaydi. Kenglik koefitsientining kichik qiymatlarida reduktor tor, ammo baland va uzun bo'ladi. Kenglik koefitsientining oshirilishi reduktorning balandligi va uzunligini kamaytirib, kengligini oshiradi. Ensiz g'ildiraklar qulay, chunki bunda reduktorni tayyorlash oson bo'ladi.

Ko'p pog'onali silindrik reduktorlarda kenglik koefitsientlarini bir xil olish kerak, bu holat faqat o'qdosh reduktorlarga tegishli bo'lmaydi.

2.1-jadval

Uzatmalar uzatish nisbatlarining reduktor pog'onalari soniga bog'liqligi

Reduktor	Reduktorlar		
	Bir pog'onali	Ikki pog'onali	Uch pog'onali
Silindrik	1,6 – 8 2 – 6,3	7,1 – 50 8 – 40	25 – 250 31,5 – 180
Planetar	3,15 – 12,5 4 – 10	10 – 125 16 – 100	63 – 1000 80 – 500
To'lqinsimon	63 – 400 80 – 315	—	—
Konussimon	1 – 6,3 1 – 5	—	—
Konussimon-silindrik	—	6,3 – 40 6,3 – 31,5	20 – 200 25 – 140
Chervyakli	8 – 80 8 – 63	63 – 4000 63 – 2500	—
Chervyakli-silindrik	—	25 – 400 40 – 250	200 – 2000 250 – 1250
Silindr-chervyakli	—	16 – 200 16 – 160	—

*Izoh:* Suratda qo'llaniladigan uzatmaning nisbatlarining to'liq oralig'i, maxrajda esa tavsiya etiladiganlari keltirilgan.

Reduktordagi tishli g'ildiraklarni turli materiallardan tayyorlash maqsadga muvofiq emas. Shu sababli uzatish nisbatlarini taqsimlayotganda reduktor tishli justlarining hisobiy qattiqligi bir xil deb hisoblanadi.


**Uchinchi bosqichda** – aynan uzatish nisbati taqsimlanadi. Buning amaliy hisobini eng ko'p tarqalgan reduktor turlari uchun ko'rib chiqamiz. Taqsimlashning fazodagi holatiga bog'liq bo'lmaydi.

Taqsimlashning muhim omili bo'lib chidamlilik (umrboqiylik) koeffitsienti  $K_{HCh}$  xizmat qiladi. U yuklanishning o'zgaruvchanligi va sikllar sonini reduktorning limitlovchi tishli g'ildiragi (odatda, sekinyurular shesterna) kontakt kuchlanishlarining bazaviy soniga nisbatini hisobga oladi.

## 2.2-§. Silindrik ikki pog'onali reduktorlarning uzatish nisbatlarini taqsimlash

**Silindrik ikki pog'onali reduktorlar.** Yoyilgan sxemadagi reduktor ( $S_2$ ) da reduktorning massasi va uning shartli hajmi  $V = BHL$  orasida yuqori korrelyasion bog'lanish bor. Formulada:  $H$  – balandlik,  $L$  – uzunlik (2.1-shakl);  $B = \Psi_a(a_{ws} + a_{wt}) = \Psi(a_s + a_T)$  – reduktorning kengligi. Hajm bilan bog'liqlik massani minimallashtirish masalasi shartini hajmni minimallashtirishga keltirish imkonini beradi, buni esa matematik yo'l bilan amalgaga oshirish ancha oson bo'ladi.

Massa va hajmning kenglik koefitsienti  $\psi$  bilan kam bog'liqligi yuqorida ta'kidlangan edi. Demak, masala yon proeksiya yuzasi  $A = HL$  ni minimallashtirilishga keltiriladi.



2.1-shakl. Yoyilgan va ikkilangan sxemalardagi ikki pog'onali reduktorlarning yon proeksiyasi

Reducktor pog'onalarini kontakt kuchlanish bo'yicha teng mustah-kamlikka ega bo'lganda va g'ildirak bo'luvchi aylanalarining diametrlari teng bo'lganda –  $d_{2S} = d_{2T}$ , bu yuza minimal bo'ladi. Bu shartlar bajarilganda va  $K_{HCb} < 1$  da tezyurar pog'onani uzatish soni

$$u_T \approx 0,75\sqrt[3]{i^2} \leq u_{\max}; \quad (2.1)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad u_T \approx 0,9\sqrt[3]{i^2} \leq u_{\max} \quad (2.2)$$

bo‘ladi

Formulalarda  $i$  – reduktoring uzatish nisbati,  $u_{\max}$  – tezyurar pog‘onaning eng katta uzatish soni (1.1-jadval);  $K_{HCh}$  – chidamlilik koefitsienti,  $K=0,9$  pog‘onalar yuklanishini hisobga oluvchi koefitsient.

Sekinyurar pog‘ona uzatish soni,

$$u_S = \frac{i}{u_T} \leq u_{\max}. \quad (2.3)$$

$u_{\max}$  bo‘yicha chegaralash reduktor uzatish nisbati  $i$  ni to‘g‘ri tanlash uchun xizmat qiladi.

$u_T$  va  $u_S$  yagona qator bo‘yicha (23-bet) standart qiymatlarga aylantirilgach, sekinyurar va tezyurar pog‘onalarning o‘qlararo masofalari aniqlanadi.

Hisobni faqat sekinyurar pog‘ona o‘qlararo masofasini topishga keltirilsa, hisoblash hajmini ikki bora kamaytirish mumkin. Buning uchun kontakt kuchlanish bo‘yicha teng mustahkamlik shartidan zarur o‘qlararo masofalar nisbati topiladi

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \frac{a_S}{a_T} = \frac{K}{\sqrt[3]{u_T}} \frac{u_S + 1}{u_T + 1} \sqrt[3]{\frac{u_T^2}{u_S}}; \quad (2.4)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \frac{a_S}{a_T} = K \frac{u_S + 1}{u_T + 1} \sqrt[3]{\frac{u_T^2}{u_S}}. \quad (2.5)$$

Olingan hisobni yaqin standart qiymatga yaxlitlanadi va quyidagi formula bo‘yicha tezyurar pog‘ona uzatish soni aniqlanadi

$$u_T = \frac{i - T}{T - 1}, \quad (2.6)$$

bu yerda:

$$K_{HCh} < 1 \quad da \quad T = \frac{a_s}{a_t} \frac{\sqrt[3]{i}}{K} 1,2; \quad (2.7)$$

$$K_{HCh} = 1 \quad da \quad T = \frac{a_s}{a_t} \frac{\sqrt[3]{i}}{K}. \quad (2.8)$$

$u_T$  standart qiymat bo'yicha (iloji bo'lsa kam tomonga) yaxlitlanadi, so'ngra (2.3) formula bo'yicha us topiladi.

$a_T$  qiymatni sekinryurar pog'ona o'qlararo masofasi  $a_s$  ni topilgan  $a_s/a_T$  nisbatga bo'lib topiladi.

**Misol.** Reduktorning uzatish nisbati  $i=22,4$ ; tishli g'ildiraklar chidamlilik koeffitsienti  $K_{HCh}<1$ ; tishning qattiqligi HRC 56–63.

(2.1) formula bo'yicha

$$u_T = 0,75\sqrt[3]{i^2} = 0,75\sqrt[3]{22,4^2} = 5,96 < u_{\max} = 6,3.$$

(2.3) formula bo'yicha

$$u_s = \frac{i}{u_T} = \frac{22,4}{5,96} = 3,76 < u_{\max} = 5,6.$$

(2.4) formula bo'yicha

$$\frac{a_s}{a_t} = \frac{K}{\sqrt[3]{u_T}} \frac{u_s + 1}{u_T + 1} \sqrt[3]{\frac{u_T^2}{u_s}} = \frac{0,9}{\sqrt[3]{5,96}} \frac{3,76 + 1}{5,96 + 1} \sqrt[3]{\frac{5,96^2}{3,76}} = 1,08.$$

Standart nisbat  $a_s/a_t=1,12$  ni qabul qilamiz.

(2.7) formula bo'yicha

$$T = \frac{a_s}{a_t} \frac{\sqrt[3]{i}}{K} 1,2 = 1,12 \frac{\sqrt[3]{22,4}}{0,9} 1,2 = 4,21.$$


(2.6) formula bo'yicha

$$u_r = \frac{i - T}{T - 1} = \frac{22,4 - 4,21}{4,21 - 1} = 5,67.$$

Standart qiymat  $u_T = 5,6 < u_{\max} = 6,3$  ni qabul qilamiz.  
Sekinyurar pog'ona uzatish soni.

$$u_s = \frac{i}{u_r} = \frac{22,4}{5,6} = 4 < u_{\max} = 5,6.$$

**Ikkilangan sxemadagi reduktor (S2Sh)** ning uzatish nisbatini taqsimlash tartibi, xuddi yoyilgan sxemadagi reduktor kabi bo'ladi, lekin koefitsient  $K = 0,85$  olinadi.



2.2-shakl. Tashqi ilashmali ikki pog'onali o'qdosh reduktor yon proeksiyasi

**O'qdosh sxemadagi va tashqi ilashmali reduktor (S2S).** O'qdosh reduktordarda (2.2-shakl) pog'onalarning o'qlararo masofasi teng bo'ladi va g'ildiraklar diametrlarining tengligi  $A = HL$  yuzani minimallashtirishni ta'minlab bermaydi. Pog'onalar uzatish sonlari  $u_T$  va  $u_s$  nisbatlarni o'zgartirganda tezyurar g'ildirak  $d_{2T}$  bo'lувchi aylanasi diametri amalda o'zgarmaydi, bu, demak, reduktorning balandligi  $H$  ham o'zgarmaydi. Reduktoring uzunligi

$$L = \frac{d_{2T}}{2} + a + \frac{d_{2S}}{2} = \frac{d_{2T}}{2} + a + a \cdot \frac{u_s}{u_s + 1},$$

bo'ladi,

$$d_{2T} \approx const$$

bo'lgani uchun uzunlik o'zgarishi o'qlararo masofa  $a$  va sekinyurar g'ildirak radiusi  $\frac{d_{2S}}{2}$  larni kamaytirish hisobiga erishitadi. Bundan ko'rindiki, reduktor massasini minimazatsiyalashtirish uchun pog'onalarning kontakt kuchlanish bo'yicha teng mustahkamligini saqlagan holda sekinyurar uzatma uzatish soni  $u_s$  ni iloji boricha eng kam bo'lganini tanlash kerak va bunda  $u_T \leq u_{max}$  ta'minlanishi lozim.

Tezyurar pog'ona uzatish soni  $u_T$  (2.6) formuladan aniqlanadi, lekin koeffitsient  $T$  quyidagicha hisoblanadi:

$$\left. \begin{array}{l} K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad T = \frac{1,25}{K} \sqrt[3]{i}; \\ K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad T = \frac{1}{K} \sqrt[3]{i}. \end{array} \right\} \quad (2.9)$$

Tashqi ilashmali o'qdosh reduktor uchun  $K = 0,9$ .

Ko'pincha,  $u_T > u_{max}$  bo'ladi. Bu holda  $u_T = u_{max}$  deb olinib, (2.3) formula bo'yicha  $u_s$  aniqlanadi,  $u_T$  ning konstruktiv kamaytirilishi tezyurar pog'onaning kam yuklanishiga olib keladi. Bunda teng mustahkamlikni ta'minlash shartidan  $\Psi_T < \Psi_S$  bo'ladi. Zarur nisbat

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \frac{\psi_s}{\psi_T} = \frac{K^3}{\sqrt[3]{u_T}} \left( \frac{u_s + 1}{u_T + 1} \right)^3 \frac{u_T^2}{u_s}; \quad (2.10)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \frac{\psi_s}{\psi_T} = K^3 \left( \frac{u_s + 1}{u_T + 1} \right)^3 \frac{u_T^2}{u_s}. \quad (2.11)$$

**Misol.** Reduktorlarning uzatish soni  $= u = 40$ ; Tishli g'ildiraklar uchun  $- K_{HCh}=1$ , tish qattiqligi  $- HB<350$ .

(2.10) formuladan

$$T = \frac{\sqrt[3]{i}}{K} = \frac{\sqrt[3]{40}}{0,9} = 3,80.$$

(2.6) formula bo'yicha

$$u_T = \frac{i - T}{T - 1} = \frac{40 - 3,8}{3,8 - 1} = 12,93 > u_{\max} = 10.$$

Uzatish sonlarining yagona qatori bo'yicha (23-bet)  $u_T=10$  deb qabul qilamiz.

(2.3) formula bo'yicha

$$u_s = \frac{i}{u_T} = \frac{40}{10} = 4.$$

(2.12) formula bo'yicha

$$\frac{\psi_s}{\psi_T} = K^3 \left( \frac{u_s + 1}{u_T + 1} \right)^3 \frac{u_T^2}{u_s} = 0,9^3 \left( \frac{4 + 1}{10 + 1} \right)^3 \frac{10^2}{4} = 1,71.$$


Tezyurar pog'ona enining minimal koeffitsienti

$$\psi_T = \frac{\psi_s}{1,71} = 0,585 \psi_s.$$

1.2-jadval bo'yicha uzil-kesil  $\Psi_T = 0,63 \Psi_s$  deb tanlab olamiz.

**O'qdosh sxemali va sekinyurar pog'onasi ichki ilashmali reduktor (S2SVN)** (2.3-shakl).

Sekinyurar shesternyaning konsol joylashishi tish eni (kengligi) bo'yicha yuklanish konsentratsiyasining ancha oshishiga olib ketadi. Shu sababli kenglik koeffitsientini  $0,2 - 0,25$  gacha cheklanadi. Reduktoring uzatish nisbatlari qancha katta bo'lса, bu koeffitsientning qiymati shuncha kam bo'lishi kerak. Taqsimlanishning birinchi bosqichida ikkala just g'ildiraklari eni teng deb olinadi, yuqorida qatliliklar tengligi aytilgan edi.



2.3-shakl. Ikki pog'onali sekinyurar pog'onasi  
ichki ilashmali o'qdosh reduktor

Tezyurar pog'ona uzatish soni

$$u_T = \frac{i - T}{T + 1} \leq u_{\max}. \quad (2.12)$$

Koeffitsiyentlar

$$K_{HCh} < 1 \text{ da } T = 1,13\sqrt[3]{i}; \quad (2.13)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da } T = 0,94\sqrt[3]{i}. \quad (2.14)$$

Bu sxema uchun – K = 0,95

Eng katta uzatish nisbatlarni xuddi yoyilgan sxemadagi reduktor-larnikiday qilib olish kerak (23-bet).


(2.3) formula bo'yicha aniqlanadigan sekinyurar uzatmaning uzatish nisbati, oldingi holatlardan farq qilib, tezyurarnikidan katta bo'lishi mumkin. Bu holat ichki ilashmaning yuqori yuklanish qobiliyati bilan izohlanadi.

Agar tezyurar pog'onaning uzatish sonini konstruktiv ravishda kamaytirish kerak bo'lsa, unda bu pog'ona kenglik koeffitsientini ham kamaytirish lozim bo'ladi. Pog'onalarning teng mustahkamligini ta'minlovchi koeffitsientlar nisbati:

$$K_{HCb} < 1 \text{ da} \quad \frac{\psi_s}{\psi_r} = \frac{K^3}{\sqrt[3]{u_r}} \left( \frac{u_s - 1}{u_t + 1} \right)^3 \frac{u_t^2}{u_s}; \quad (2.15)$$

$$K_{HCb} = 1 \text{ da} \quad \frac{\psi_s}{\psi_r} = K^3 \left( \frac{u_s - 1}{u_t + 1} \right)^3 \frac{u_t^2}{u_s}. \quad (2.16)$$

**Silindrik uch pog'onali reduktorlar.** Ko'p hollarda bu reduktorlar yoyilgan sxemalarda tayyorlanadi (2.4-shakl).



2.4 shakl. Yoyilgan sxemadagi uch pog'onali reduktor sxemasi

Xuddi ikki pog'onali reduktorlardagi kabi, yon proeksiyaning minimal yuzasi  $A = HL$ , hamma pog'onalarining kontakt mustahkamligi va g'ildiraklar bo'lувчи diametrlarining tengligida  $d_{2S} = d_{20} = d_{2T}$  amalga oshiriladi. Bu shartlarni matematik amalga oshirish uzatish nisbati  $i$  ni quyidagicha taqsimlashga olib keladi.

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad u_T = 0,58 \sqrt[7]{i^4}; \quad u_O = 1,08 \sqrt[7]{i^2}; \quad u_S = 1,6 \sqrt[7]{i}, \quad (2.17)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad u_T = 0,86 \sqrt[7]{i^4}; \quad u_O = \sqrt[7]{i^2}; \quad u_S = 1,17 \sqrt[7]{i}. \quad (2.18)$$

Har bir uzatish soni maksimal joiz – chetga chiqishi  $u_{\max}$  dan katta bo‘lmasligi kerak.

Chidamlilik koefitsienti  $K_{HCh}$ , ko‘p hollarda birdan kichik, ya’ni ko‘pincha (2.17) formula ishlataladi. Agar  $u_T > u_{\max}$  bo‘lsa,  $u_T - u_{\max}$  deb olish kerak, uzatish nisbatlarining qolgan qismini esa xuddi ikki pog‘onali reduktorniki kabi olish kerak.

Tezyurar pog‘onani uzatish soni bo‘yicha chegaralash hamda uzatish sonlarining va o‘qlararo masofa nisbatlarining diskretiligi g‘ildirak diametrlerining tengligini buzib yuboradi. Sekinyurar va oraliq g‘ildiraklarning diametrleri deyarli teng bo‘lib, tezyurarniki ancha kichik bo‘ladi. Bu tipik holat 2.4-shaklda ko‘rsatilgan.

Topilgan uzatish sonlarini standart qiymatlarga yaxlitlab olinsa ( $u_0$  – kam tomonga), pog‘onalarning o‘qlararo masofasini aniqlash mumkin. Agar dastlab teng mustahkamlik shartidan o‘qlararo masofa aniqlansa, hisoblar ko‘lamini uch bora kamaytirish mumkin.

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \left. \begin{aligned} \frac{a_S}{a_O} &= \frac{0,9}{\sqrt[9]{u_O}} \frac{u_S + 1}{u_O + 1} \sqrt[3]{\frac{u_O}{u_S}} \\ \frac{a_O}{a_T} &= \frac{0,95}{\sqrt[9]{u_T}} \frac{u_O + 1}{u_T + 1} \sqrt[3]{\frac{u_T^2}{u_O}} \end{aligned} \right\}, \quad (2.19)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \left. \begin{aligned} \frac{a_S}{a_O} &= 0,9 \frac{u_S + 1}{u_O + 1} \sqrt[3]{\frac{u_O^2}{u_S}} \\ \frac{a_O}{a_T} &= 0,95 \frac{u_O + 1}{u_T + 1} \sqrt[3]{\frac{u_T^2}{u_O}} \end{aligned} \right\}. \quad (2.20)$$

Hisoblangan qiymatlarni standart qiymatlarga yaxlitlanadi va oraliq pog‘onaning uztish soni aniqlanadi.

$$u_o = \frac{u_s u_o - T_o}{T_o - 1}. \quad (2.21)$$

Shtrix bilan dastlabki qiymatlar belgilangan.  
Koeffitsiyentlar:

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad T_o = \frac{a_s}{a_o} \frac{\sqrt[3]{u_s u_o}}{0,9} 1,2; \quad (2.22)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad T_o = \frac{a_s}{a_o} \frac{\sqrt[3]{u_s u_o}}{0,9}. \quad (2.23)$$

Sekinyurar pog'onganing uzatish soni:

$$u_s = \frac{u_s u_o}{u_o}. \quad (2.24)$$

O'qlararo masofalar  $a_T$  va  $a_s$  lar xuddi ikki pog'onali reduktorlar kabi aniqlanadi.  $a_s$  hisoblashga qadar sekinyurar shesterna va tezyurar g'ildirak orasidagi oraliq tirqish (zazor) borligiga ishonch qilish kerak (2.4-shaklga qarang). Agar oraliq tirqish bo'lmasa,  $u_T$  kamaytililadi va hisobni yana qaytadan bajariladi.

**Misol.** Reduktorming uzatish nisbati –  $i = 125$ ; chidamlilik koefitsienti –  $K_{HCh} < 1$ ; g'ildirak tishi qattiqligi – HB  $\leq 350$ .

(2.17) formula bo'yicha

$$u_T = 0,58 \sqrt[7]{i^4} = 0,58 \sqrt[7]{125^4} = 9,16 > u_{\max} = 8.$$

$u_T = 8$  olamiz va quyidagini topamiz.

$$u_s u_o = \frac{i}{u_T} = \frac{125}{8} = 16.$$

(2.1) formula bo'yicha

$$u_o' = 0,75 \sqrt[3]{(u_s' u_o')^2} = 0,75 \sqrt[3]{16^2} = 4,77 ,$$

$u_o = 4,5$  deb qabul qilamiz.

(2.24) formula bo'yicha

$$u_s = \frac{u_s' u_o'}{u_o} = \frac{16}{4,5} = 3,55 .$$

(2.19) formula bo'yicha o'qlararo masofaning zarur nisbatini aniqlaymiz

$$\frac{a_s}{a_o} = \frac{0,9}{\sqrt[3]{u_o}} \frac{u_s + 1}{u_o + 1} \sqrt[3]{\frac{u_o^2}{u_s}} = \frac{0,9}{\sqrt[3]{4,5}} \frac{3,55 + 1}{4,5 + 1} \sqrt[3]{\frac{4,5^2}{3,55}} = 1,12 .$$

Hisoblangan qiymat standartga mos bo'lib, oraliq va sekinyurar pog'onalarning uzatish sonlarini aniqlash shart emas.

$$\frac{a_o}{a_r} = \frac{0,95}{\sqrt[3]{u_r}} \frac{u_o + 1}{u_r + 1} \sqrt[3]{\frac{u_r^2}{u_o}} = \frac{0,95}{\sqrt[3]{8}} \frac{4,5 + 1}{8 + 1} \sqrt[3]{\frac{8^2}{4,5}} = 1,115 .$$

$\frac{a_o}{a_r} = 1,12$  deb qabul qilamiz. Juda kichik o'zgarishni e'tiborga

olib, uzatish sonlarini boshqa o'zgartirmaymiz.

Sekinyurar shesterna va tezyurar g'ildirak orasidagi tirkishni tek-shiramiz.

Sekinyurar shesternaning tashqi radiusi.

$$\frac{d_{als}}{2} = \frac{a_s}{u_s + 1} + 0,02 a_s = 1,12 a_o \left( \frac{1}{3,55 + 1} + 0,02 \right) = 0,2686 a_o .$$

Tezyurar g'ildirakning tashqi radiusi

$$\frac{d_{2T}}{2} = a_T \frac{u_T}{u_T + 1} + 0,02 a_T = \frac{a_O}{1,12} \left( \frac{8}{8+1} + 0,02 \right) = 0,8115 a_O.$$

Oraliq  $\Delta = a_O - (0,2686 a_O + 0,8115 a_O) = -0,08 a_O$ .

Tirqish bo'lmagan uchun, tezyurar pog'ona uzatish sonini kamaytiramiz va  $u_T = 7,1$  deb qabul qilamiz. Hisobning tafsilotini qoldirib, natijalarini keltiramiz:

$$u_T = 7,1; u_O = 5; u_S = 3,55;$$

$$\frac{a_S}{a_O} = 1,12; \quad \frac{a_O}{a_T} = 1,25.$$

Tirqish  $\Delta = 0,014 a_O > 0,01 a_O$

G'ildirak diametrlarining nisbati;

$$d_{2S} = 2a_S \frac{u_S}{u_S + 1} = 2 \cdot 1,12 a_O \frac{3,55}{3,55 + 1} = 1,748 a_O;$$

$$d_{2O} = 2a_O \frac{u_O}{u_O + 1} = 2 a_O \frac{5}{5 + 1} = 1,677 a_O;$$

$$d_{2T} = 2a_T \frac{u_T}{u_T + 1} = \frac{2a_O}{1,25} \frac{7,1}{7,1 + 1} = 1,402 a_O.$$


Mo'ljalda tutilgandek, sekinyurar va oraliq g'ildirakning diametrlari deyarli teng (farq faqat standart qiymatlarga aylantirishgacha bo'lgani bilan izohlanadi), tezyurarniki esa – ancha kam.

### 2.3-§. Planetar reduktorlarning uzatish nisbatlarini taqsimlash

Ikki pog'onali planetar reduktorning massasi uning pog'onalarini kontakt kuchlanish bo'yicha teng mustahkamligida va tishli gardishli diametrlar teng (2.5-shakl) bo'lganida minimal bo'ladi.  $\Psi_T = \Psi_S$  da va tezyurar pog'onaning uzatish soni quyidagi tenglamalarni qanoatlantirsa, bu shart amalga oshiriladi.

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \frac{u_T - 2}{i - 2u_T} = \left( \frac{u_T - 1}{i - u_T} \right)^3 u_T \sqrt[3]{u_T}; \quad (2.25)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \frac{u_T - 2}{i - 2u_T} = \left( \frac{u_T - 1}{i - u_T} \right)^3 u_T. \quad (2.26)$$



2.5-shakl. Ikki pog'onali planetar reduktor sxemasi

Bu tenglamalarning ildizlari uzatish nisbatlarining hamma standart qiymatlari uchun 2.2-jadvalda berilgan.

### 2.2-jadval Planetar reduktor tezyurar pog'onalarining uzatish soni

$i$	$u_i$	$i$	$u_i$	$i$	$u_i$
10	4,99/5,0	25	8,86/6,90	63	15,28/11,20
11,2	5,60/5,60	28	9,13/7,20	71	16,53/12,60
12,5	6,25/4,80	31,5	9,80/7,80	80	17,88/13,60
14	6,99/5,00	33,5	10,56/8,40	90	19,34/14,60
16	7,95/5,30	40	11,38/9,00	100	20,73/15,50
18	8,99/5,60	45	12,28/9,60	112	22,36/16,60
20	7,62/6,00	50	13,14/10,20	125	24,06/17,70
22,4	8,06/6,50	56	14,14/10,80	140	25,95/19,00

*Eslatma.* Suratida  $K_{HCh} = 1$  bo'lgandagi, maxrajida esa  $K_{HCh} < 1$  bo'lgan-dagi qiymatlar keltirilgan.

Tezyurar pog'onaning uzatish soni  $u_T \leq u_{\max} = 10$  shartni, hech bo'lmasa  $u_T=12,5$  ni qanoatlantirishi lozim. Sekinyurar pog'ona-larning uzatish soni  $u_S > u_{\min}=4$ , hech bo'lmasa  $u_S \geq 3,15$  ni qanoat-lantirishi lozim.

2.2-jadvaldan ko'rindaniki, birinchi yoki ikkinchi shart ko'p hol-larda bajarilmaydi. Nohisobiy uzatish sonlarini qabul qilish pog'onalar tishlarining bir xil kengligida teng mustahkamlik shartining buzil-ishiga olib keladi.

Teng mustahkamlik shartini ta'minlovchi kenglik koefitsient-lerining nisbati

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \frac{\psi_T}{\psi_S} = \left( \frac{u_T - 1}{u_S - 1} \right)^3 \frac{u_S - 2}{u_T - 1} \sqrt[3]{\frac{u_T}{u_S}}; \quad (2.27)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \frac{\psi_T}{\psi_S} = \left( \frac{u_T - 1}{u_S - 1} \right)^3 \frac{u_S - 2}{u_T - 2} \frac{1}{u_T}. \quad (2.28)$$

So'ngra hisoblar bilan pog'onalar yetaklagichlari radiuslarini aniqlaymiz. Agar oldindan zarur radiuslar nisbati aniqlansa, hisoblarni ikki bora kamaytirish mumkin:

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \frac{R_S}{R_T} = \frac{u_S}{u_T} \sqrt[3]{\frac{u_T(u_T - 2)}{u_S - 2}} \sqrt[3]{\frac{\psi_T}{\psi_S}} \frac{1}{\sqrt[3]{u_T}}; \quad (2.29)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \frac{R_S}{R_T} = \frac{u_S}{u_T} \sqrt[3]{\frac{u_T(u_T - 2)}{u_S - 2}} \sqrt[3]{\frac{\psi_T}{\psi_S}}. \quad (2.30)$$

**Misol.** Reduktoring uzatish nisbati –  $i = 50$ ; tishli g'ildiraklar chidamlilik koefitsienti –  $K_{HCh} = 1$ .

2.2-jadval bo'yicha  $u_T=13,14 > u_{\max} = 10$ .

$u_T=10$  deb qabul qilamiz.

(2.3) formula bo'yicha

$$u_s = \frac{i}{u_T} = \frac{50}{10} = 5.$$

(2.28) formula bo'yicha

$$\frac{\psi_T}{\psi_s} = \left( \frac{u_T - 1}{u_s - 1} \right)^3 \frac{u_s - 2}{u_T - 2} \cdot \frac{1}{u_T} = \left( \frac{10 - 1}{5 - 1} \right)^3 \frac{5 - 2}{10 - 2} \cdot \frac{1}{10} = 0,43 .$$

standart qiymat 0,4 ni qabul qilamiz.

(2.30) formula bo'yicha

$$\frac{R_s}{R_t} = \frac{u_s}{u_t} \sqrt[3]{\frac{u_t(u_t - 2)}{u_s - 2}} \sqrt[3]{\frac{\psi_T}{\psi_s}} = \frac{5}{10} \sqrt[3]{\frac{10(10 - 2)}{5 - 2}} \sqrt[3]{0,4} = 1,1 .$$

$$\frac{R_s}{R_t} = 1,12$$

deb qabul qilamiz.

#### 2.4-§. Konussimon-silindrik ikki pog'onali reduktorlarning uzatish nisbatlarini taqsimlash

G'ildiraklar diametrlarining tengligini faqat kichik uzatish nisbatlarida ta'minlash mumkin. Shu sababli konussimon g'ildirak konus asosi diametri  $d_{e2}$  ni sekinyurar silindrik pog'ona o'qlararo masofasi  $a_s$  ga nisbatini oshirib hamda sekinyurar pog'ona uzatish soni  $u_s$  ni  $u_T \leq u_{max}$  shartning chegarasida kamaytirib, sekinyurar g'ildirak diametrini kamaytirishga harakat qilinadi.

Sekinyurar pog'ona uzatish soni

$$K_{HCh} < 1 da \quad u_s = \frac{4,2}{\sqrt[3]{\theta_H}} \frac{a_s}{d_{e2}} \sqrt[3]{i \psi_s} 1,2 - 1; \quad (2.31)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad u_s = \frac{4,2}{\sqrt[3]{\theta_H}} \frac{a_s}{d_{e2}} \sqrt[3]{i\psi_s} - 1. \quad (2.32)$$

Agar tezyurar pog'onaning uzatish soni  $u_T = \frac{i}{u_s} \geq u_{\max}$  bo'lsa,

unda  $u_T = u_{\max}$  deb qabul qilinadi va teng mustahkamlik shartidan  $\frac{a_s}{d_{e2}}$  nisbat topiladi.

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \frac{a_s}{d_{e2}} = \frac{u_s + 1}{\sqrt[3]{i\psi_s}} \frac{\sqrt[3]{\theta_H}}{4,2} \frac{1}{\sqrt[3]{u_T}}; \quad (2.33)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \frac{a_s}{d_{e2}} = \frac{u_s + 1}{\sqrt[3]{i\psi_s}} \frac{\sqrt[3]{\theta_H}}{4,2}. \quad (2.34)$$

$\theta_H$  – koefitsientni 2.3-jadval bo'yicha hisoblaymiz.

*2.3-jadval*

$\theta_H$  – koefitsientini aniqlash uchun formulalar

Hisobiy kattalik	Shesterna va g'ildirak tishlarini mustahkamlash turlari		
	Ya <sub>1</sub> +Ya <sub>2</sub>	YuChT <sub>1</sub> +Ya <sub>2</sub> T <sub>1</sub> +Ya <sub>2</sub> S <sub>1</sub> +Ya <sub>2</sub>	YuChT <sub>1</sub> +YuChT <sub>2</sub> T <sub>1</sub> +T <sub>2</sub> S <sub>1</sub> +S <sub>2</sub>
$\theta_H$	1,22+0,21 $u$	1,13+0,13 $u$	0,81+0,15 $u$

*Qabul qilingan qisqartirishlar Ya – yaxshilash, T – hajmiy toplash, YuChT – yuqori chastotali tok vositasida qizdirib, sirt yuzasini toplash; S – sementatsiyalash.*

$\frac{d_{e2}}{a_s} = 1,4$  va qattiqlik HRC  $\geq 40$  da (2.31) va (2.32) formulalar soddalashadi:

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad u_s \approx 3,13\sqrt{i\psi_s} - 1; \quad (2.35)$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad u_s \approx 2,63\sqrt{i\psi_s} - 1. \quad (2.36)$$

**Misol.** Reduktoring uzatish nisbati  $i = 22,4$ ; tishli g'ildiraklar chidamlilik koefitsienti  $K_{HCh} = 1$ ; sekinyurar pog'ona kenglik koefitsienti  $\psi_s = 0,315$ ; tishlarning qattiqligi  $HRC \geq 40$ .

(2.36) formula bo'yicha

$$u'_s = 2,63\sqrt{i\psi_s} - 1 = 2,63\sqrt{22,4 \cdot 0,315} - 1 = 3,97.$$

$u'_s = 4$  deb qabul qilamiz.

$$u'_T = \frac{1}{u'_s} = \frac{22,4}{4} = 5,6 > u_{\max} = 5.$$

$$u_T = 5 \text{ deb qabul qilamiz va } u_s = \frac{i}{u_T} = \frac{22,4}{5} = 4,5.$$

(2.34) formula bo'yicha

$$\frac{d_{e2}}{a_s} = \sqrt[3]{\frac{i\psi_s}{\theta_H} \cdot \frac{4,2}{u_s + 1}} = \sqrt[3]{\frac{22,4 \cdot 0,315}{1,56} \cdot \frac{4,2}{4,5 + 1}} = 1,26.$$

$$\frac{d_{e2}}{a_s} = \frac{1}{0,817} = 1,22.$$

Uzil-kesil  $\frac{d_{e2}}{a_s} = 1,25$  deb qabul qilamiz.

**Konussimon-silindrik uch pog'onali reduktorlar.** Birinchi navbatda, silindrik g'ildiraklar tengligini ta'minlash kerak, mumkin qadar ularga konussimon g'ildirak diametri  $d_{e2}$  ni yaqinlashtirish kerak.

Uzatish nisbatini taqsimlash tartibi quyidagicha: reduktoring uzatish nisbati  $i$ , tishli g'ildirak chidamlilik koefitsienti  $K_{HCh}$  va g'ildirak tishi qattiqligini qabul qilinadi.

Tezyurar pog'ona uzatish soni qabul qilinadi:

$$K_{HC_h} < 1 \text{ da} \quad u_T \approx \frac{0,15}{\psi} \sqrt[7]{i^4} \leq u_{\max}; \quad (2.37)$$

$$K_{HC_h} = 1 \text{ da} \quad u_T \approx \frac{0,19}{\psi} \sqrt[7]{i^4} \leq u_{\max}. \quad (2.38)$$

Oraliq va sekinyurar pog'onalar uzatish sonlari ko'paytmasining dastlabki qiymati aniqlanadi.

$$u'_o u'_s = \frac{i}{u_T}. \quad (2.39)$$

Oraliq pog'onaning uzatish soni aniqlanadi:

$$K_{HC_h} < 1 \text{ da} \quad u_O \approx 0,75 \sqrt[3]{(u'_o u'_s)^2}; \quad (2.40)$$

$$K_{HC_h} = 1 \text{ da} \quad u_O \approx 0,9 \sqrt[3]{(u'_o u'_s)^2}. \quad (2.41)$$

Sekinyurar pog'onaning uzatish soni

$$u_s = \frac{u'_o \cdot u'_s}{u_o}. \quad (2.42)$$

Silindrik pog'onalar o'qlararo masofasi nisbati quyidagi formula-lar orqali hisoblanadi:

$$K_{HC_h} < 1 \text{ da} \quad \frac{a_s}{a_o} = \frac{0,9}{\sqrt[3]{u_o}} \frac{u_s + 1}{u_o + 1} \sqrt[3]{\frac{u_o}{u_s}};$$

$$K_{HC_h} = 1 \text{ da} \quad \frac{a_s}{a_o} = 0,9 \frac{u_s + 1}{u_o + 1} \sqrt[3]{\frac{u_s^2}{u_o}}.$$

Oraliq pog'ona o'qlararo masofasini konussimon g'ildirak diametri  $d_{e2}$  ga nisbati quyidagi formula yordamida topiladi.

$$K_{HCh} < 1 \text{ da} \quad \frac{a_o}{d_{e2}} = \frac{u_o + 1}{\sqrt[3]{i\psi_o}} \cdot \frac{\sqrt[3]{\theta_H}}{4,2} \cdot \frac{1}{\sqrt[3]{u_T}};$$

$$K_{HCh} = 1 \text{ da} \quad \frac{a_o}{d_{e2}} = \frac{u_o + 1}{\sqrt[3]{i\psi_o}} \cdot \frac{\sqrt[3]{\theta_H}}{4,2}.$$

Konussimon g'ildirak va sekinyurar shesterna orasidagi tirqish hisoblanadi  $\Delta > 0,01a_{or}$ .

Agar tirqish bo'lmasa,  $u_T$  kamaytiriladi va hisob qaytariladi.

**Misol.** Reduktoring uzatish nisbati –  $i = 45$ ; tishli g'ildirak chidamlilik koefitsienti –  $K_{HCh}=1$ ; tishlarining qattiqligini HRC  $\geq 40$ ,  $\psi_s=\psi_o=0,315$  deb qabul qilamiz.

(2.38) formula bo'yicha

$$u'_T = \frac{0,19}{\psi} \sqrt[3]{i^4} = \frac{0,19}{0,315} \sqrt[3]{45^4} = 5,31 > u_{max} = 5.$$

$u_T=5$  deb qabul qilamiz.

(2.39) formula bo'yicha

$$u'_o u'_s = \frac{i}{u_T} = \frac{45}{5} = 9.$$

(2.41) formula bo'yicha

$$u_o \approx 0,9 \sqrt[3]{(u'_o \cdot u'_s)^2} = 0,9 \sqrt[3]{9^2} = 3,90.$$

$u_o=4$  deb qabul qilamiz

(2.42) formula bo'yicha

$$u_s = \frac{u'_o \cdot u'_s}{u_o} = \frac{9}{4} = 2,24.$$

(2.20) formula bo'yicha

$$\frac{a_s}{a_o} = 0,9 \frac{u_s + 1}{u_o + 1} \sqrt[3]{\frac{u_o^2}{u_s}} = 0,9 \frac{2,24 + 1}{4 + 1} \sqrt[3]{\frac{4^2}{2,24}} = 1,123.$$

$\frac{a_s}{a_o} = 1,12$  deb qabul qilamiz. O'zgarish kichik bo'lgani uchun uzatish sonlarini o'zgartirmaymiz.

(2.34) formula bo'yicha uch pog'onali reduktorlar uchun maxrajdagi koeffitsientni 3,9 deb olamiz

$$\frac{a_o}{d_{e2}} = \frac{u_o + 1}{\sqrt[3]{u_o \cdot u_T \cdot \psi_o}} \cdot \frac{\sqrt[3]{\theta_H}}{3,9} = \frac{4 + 1}{\sqrt[3]{5 \cdot 4 \cdot 0,315}} \cdot \frac{\sqrt[3]{1,56}}{3,9} = 0,805;$$

$$\frac{d_{e2}}{a_o} = \frac{1}{0,805} = 1,24.$$

$$\frac{d_{e2}}{a_o} = 1,25 \text{ deb qabul qilamiz.}$$

## 2.5-§. Chervyakli-silindrik reduktorlarning uzatish nisbatini taqsimlash

**Chervyakli-silindrik reduktorlar.** Bu reduktorlarning eng muhim omillari – massasi, foydali ish koeffitsienti va chervyak g'ildiragiga sarf bo'ladigan bronza hisoblanadi.

Agar chervyakli tezyurar pog'onaning uzatish nisbati kamaysa, hamma uchta omil bo'yicha ham ko'rsatkichlar yaxshilanadi. Uzatish nisbatini quyidagicha taqsimlash tavsiya etiladi:

agar  $i \leq 50$  bo'lsa,  $u_T = 8$  va  $u_S = i/8$ ;

agar  $i > 50$  bo'lsa,  $u_S = 6,3$  va  $u_T = i/6,3$ .

**Silindr-chervyakli reduktorlar.** Reduktorning gabarit o'lchamlari va massasi uzatish nisbatini taqsimlashga sezilarsiz bog'liq. Shu sababdan taqsimlash silindrik tezyurar pog'onani konstruktiv sharoit bo'yicha komponovkasiga bo'ysunadi.

Tezyurar pog'onaning uzatish soni  $u_T = \sqrt[5]{i}$ , bunda quyidagi shart bajarilishi kerak.

$$2 \leq u_T \leq 3,15; \quad 8 \leq u_S \leq 63.$$

**Chervyakli ikki pog'onali reduktor.** Optimallik mezoni bo'lib,  $u_T = u_S = \sqrt[5]{i}$  da erishiladigan eng katta foydali ish koeffitsienti xizmat qiladi.

---

### III BOB. YURITMA POG'ONALARI UZATISH NISBATINI TAQSIMLASH

#### 3.1-§. Reduktorlarning uzatish nisbatlarini jadval yordamida aniqlash

«Mashina detallari» kurs loyihalari bo'yicha ayrim kitoblarda reduktorlarning uzatish nisbatlari (soni)ni<sup>1</sup> jadval yordamida aniqlash tavsiya etiladi. P.F.Dunayev va O.P.Lelikov muallifligidagi kitoblarda asosiy turdag'i reduktorlar – ikki pogonali yoyilgan sxemadagi, ikki pogonali o'qdosh, konussimon-silindrik, silindrik-chervyakli va planetcular reduktorlar uchun jadvalda tavsiyalar berilgan. Ushbu ma'lumot qo'llanmaning 3.1-jadvalida keltirilgan.

3.1-jadvaldag'i aniqlangan qiymatlarni avvalgi bobda yechilgan misollar bilan taqqoslab chiqamiz.

**Silindrik ikki pogonali yoyilgan sxemada** tayyorlangan, uzatish nisbati  $i = 22,4$  b o'lgan reduktor uchun 35 – 36-betlardagi yechimga asosan  $u_T = 5,6$ ;  $u_S = 4$ .

3.1-jadvaldan foydalansak

$$u_T = 0,88\sqrt{22,4} = 4,16.$$

Standart qiymat bo'yicha  $u_S=4$ .

$$u_T = \frac{22,4}{4} = 5,6.$$

**Silindrik ikki pogonali o'qdosh reduktor** uchun 38-betdag'i misolda  $u_R=40$  bo'lgan holda

$$u_T=10; \quad u_S=4$$

yechim chiqqan edi.



3.1-jadvaldan foydalansak:

---

<sup>1</sup>Qayd etilgan kitoblarda uzatish nisbati shartli ravishda uzatish soni deb atalgan va  $u$  bilan belgilangan [3].

3. I-jadval

Reduktorlarning uzatish nisbatlari (soni)ni aniqlash uchun tavsiyalar

Reduktor	Sxemasi	Uzatish nisbati (soni)	
		$i_T (u_T)$	$i_S(u_S)$
1. Ikki pog'onalii yoyilgan sxemada		$i_{red}/i_s$	$0,88\sqrt{i_{red}}$
2. Ikki pog'onalii o'q-dosh		$i_{red}/i_s$	$0,95\sqrt{i_{red}}$

3.1-jadvalni davomi

	$U_s$	$i_{red}/i_T$
3. Ikki pog'onalni ichki ilashmali o'qdosh	$2\sqrt{i_{red}}$	
4. Konussimon-silindrik	$i_{red}/i_s$	$1,1\sqrt{i_{red}}$
5. Silindr-chervyakli	$U_s$	$1,6 \sim 3,15$
6. Planetar ikki pog'onalni		$i_{red}/4$
$i_{red} \leq 25$		$6,3$
$25 \leq i_{red} \leq 63$		$0,1 i_{red}$
$i_{red} \geq 63$		

$$u_s = 0,95\sqrt{u_R} = 0,95\sqrt{40} = 6.$$

Standart qiymat bo'yicha  $u_s=6,30$ .

$$u_T = \frac{u_R}{u_s} = \frac{40}{6,3} = 6,34.$$

Standart qiymat bo'yicha  $u_T=6,3$ .

**Konussimon-silindirik reduktor** 49-betda  $i=22,4$  bo'lganda  $u_1=5$ ,  $u_s=4,5$  yechim berilgan.

3.1-jadvaldan foydalanganimizda

$$u_s = 1,1\sqrt{i_{red}} = 1,1\sqrt{22,4} = 5,2.$$

Standart qiymat bo'yicha  $u_s=5$ ;

$$u_T = \frac{22,4}{5} = 4,48,$$

standart bo'yicha  $u_T=4,5$ .

Yuqoridagi yechimlarga asoslanib faqat ikki pogonali yoyilgan sxemada tayyorlangan reduktorlar uchun 3.1-jadvaldan foydalanganagi yechimni uzatish nisbatini optimal taqsimlash bilan bir xil chiqqanini ko'rsatish mumkin. Demak, bu jadvaldan boshqa holatdagi yechimlar reduktor gabarit o'lchamlarining optimallik talablariga mos bo'lmasligini esdan chiqarmaslik kerak.

### 3.2-§. Yuritmaning umumiy uzatish nisbatini taqsimlash

Yuritmaning umumiy uzatish nisbatini taqsimlash «Mashina detallari» kurs loyihasidagi kinematik hisobda yuritma uchun elektrodvigatel tanlangandan keyin bajariladi. Kinematik hisobni bajarish bo'yicha kurs loyihasini bajarish bo'yicha adabiyotlarda batafsil ma'lumot keltirilgan. Shu sababli qo'llanmada qaytarishni ortiqcha hisoblab, biz quyida reduktor ochiq uzatma bilan yuritmada harakatni uzatayotgan hol uchun uzatish nisbatini to'g'ri taqsimlash tartibini

ko'rib chiqish bilan cheklanamiz. Bunda yuqorida bayon etilgan reduktor uzatish nisbatlarini optimal taqsimlashga e'tibor qaratamiz.

Elektrodvigatel tanlab olingandan so'ng yuritmaning umumiy uzatish nisbati hisoblanadi

$$i_{um} = \frac{n_{ed}}{n_{ish}},$$

$n_{ed}$  – tanlab olingen elektdovigatelning aylanishlar takroriyligi,  $\text{min}^{-1}$ ;


$n_{ish}$  – loyi halanayotgan ishchi organining aylanishlar takroriyligi,  $\text{min}^{-1}$ .

Hisoblangan umumiy uzatish nisbatini yuritma uzatmalarining turi va pogonalari orasida taqsimlanadi.

Agar kinematik sxemada tishli (chervyakli) uzatmalardan tashqari zanjirli yoki tasmali uzatmalar bo'lsa, oldin ularning, ya'ni ochiq uzatmalarning uzatish nisbatlari aniqlanadi.

Tasmali uzatmalar uchun uzatish nisbatlarining o'rtacha qiymatlari – 2–4; zanjirli uzatmalar uchun – 3–6. Ochiq uzatmalarning uzatish nisbatini dastlab aniqlahsda ularning detallari o'lchamini yuritmaning boshqa detallari bilan o'lchamdoshligi ta'minlanadi. Bundan tashqari, shkiv va yulduzcha diametrlerning minimal bo'lish sharti ham bajariishi kerak. Shkiv diametrining minimal qiymati ponasimon tasma kesim profiliga bo g'liq, ular to'g'risida ma'lumotlar tegishli darsliklarda berilgan. Yetaklovchi yulduzchaning diametri zanjir qadami  $p$  va tishlar soni  $z_1$  ning minimal ruxsat etilgan qiymatlariiga bo g'liq bo'ladi.

**1-misol.** Tasmali baraban vali tasmali va ikki pogonali silindrik yoyilgan sxemada tayyorlangan reduktor yordamida harakatga keltiriladi (3.1-shakl). Yuritmaning kinematik hisobidan barabanning aylanishlar takroriyligi  $n_b=40 \text{ min}^{-1}$  va elektrodvigatelning aylanishlar takroriyligi  $n_{eldv}=1455 \text{ min}^{-1}$  ma'lum. Yuritma uzatmalarining uzatish nisbatlari taqsimlansin.



3.1-shakl. Tasmali konveyer yuritmasi:  
 1-elektrodvigatel; 2-ponasimon tasmali uzatma; 3-ikki pogonali reduktor;  
 4-konveyer barabani

Dastlabki berilgan qiymatlar bo'yicha yuritmaning umumiy uzatish nisbatini hisoblaymiz

$$i_{um} = \frac{n_{eldv}}{n_b} = \frac{1455}{40} = 36,37.$$

O'z navbatida, yuritmadagi uzatmalarning joylashishiga asoslanib  $i_{um}$  ni tasmali uzatma  $i_{t.u}$  va reduktor  $i_r$  uzatish nisbatlarining ko'paytmasi ko'rinishidagi ifodasini keltiramiz

$$i_{um} = i_{t.u} \cdot i_r .$$

Tavsiyalarga binoan  $i_{t,u} = 2$  deb belgilaymiz, u holda rediktorning uzatish nisbati

$$i_r = \frac{i_{um}}{i_{t,u}} = \frac{36,37}{2} = 18,18.$$

Endi reduktor uzatish nisbatlarini optimal taqsimlash shartidan uning tezyurar va sekinyurar pogonalari uchun uzatish nisbatlarining optimal qiymatlarini hisoblaymiz. Hisoblashlarda chidamlilik koefitsientini  $K_{HCh}=1$ , tishlar qattiqligini HRC 56-63 deb olamiz

(2.1) formula bo'yicha

$$u_T = 0,75\sqrt[3]{i^2} = 0,75\sqrt[3]{18,18^2} = 5,19 < u_{max} = 6,3.$$

(2.4) formulaga asosan

$$u_s = \frac{1}{u_T} = \frac{18,18}{5,19} = 3,50 < u_{max} = 5,6.$$

(2.5) formula bo'yicha  $K_{HCh}=1$ da hisoblarda  $K=0,9$  olamiz

$$\frac{a_s}{a_T} = K \frac{u_s + 1}{u_T + 1} \sqrt[3]{\frac{u_T^2}{u_s}} = 0,9 \frac{3,50 + 1}{5,19 + 1} \sqrt[3]{\frac{5,19^2}{3,5}} = 1,28.$$

Standart qiymat 1,25 ni olamiz.

(2.7) formula bo'yicha

$$T = \frac{a_s}{a_T} \frac{\sqrt[3]{i}}{K} 1,2 = 1,25 \frac{\sqrt[3]{18,18}}{0,9} 1,2 = 4,38,$$

(2.6) formula bo'yicha

$$u_T = \frac{i - T}{T - 1} = \frac{18,18 - 4,38}{4,38 - 1} = 4,08.$$

Standart qiymat  $u_T = 4,0 < u_{max} = 6,5$  ni qabul qilamiz.

Sekinyurar pogona uzatish soni

$$u_s = \frac{1}{u_T} = \frac{18,18}{4,0} = 4,54.$$

Standart qiymat  $u_S = 4,5 < u_{\max} = 5,6$  ni qabul qilamiz.

Reduktoring umumiyliz uzatish soni

$$i_R = u_T \cdot u_S = 4,0 \cdot 4,5 = 18.$$

Reduktor pogonalari uzatish nisbatlarining optimal qiymatlari bo'yicha tasmali uzatma uzatish nisbatining aniq qiymatini hisoblaymiz

$$i_{t,u} = \frac{i_{um}}{i_r} = \frac{36,37}{18} = 2,02.$$

Tasmali uzatma uzatish nisbatlari uchun standart qiymatlar tavsiya etilgan emas. Shu sababli  $i_{t,u}=2$  deb qabul qilsak ham bo'ladi. Uning haqiqiy qiymati tasmali uzatma shkivlarininig diametrlari aniqlanib, standart bo'yicha qabul qilinganda uzil-kesil hisoblanadi. Hozir uning dastlabki qiymati  $i_{t,u} = 2$  bo'yicha umumiyliz uzatish nisbatini hisoblab, hisoblash qiyamatini yaxlitlashdagi foiz xatoligini aniqlaymiz. Xatolik 4% gacha ruhsat etiladi.


$$i_{uu} = i_{t,u} i_2 = 2 \cdot 18 = 36.$$

Xatolik

$$\Delta i = \frac{i_{uu} - i_{um}}{i_{um}} 100\% = \frac{36,37 - 36}{36,37} 100\% \approx 1\% < 4\%.$$

Demak, xatolik ruxsat etilgandan kam bo'lgani uchun uzatish nisbatlarining qiymatlarini qabul qilamiz.

**2-misol** Yulduzchali baraban vali silindr-chervyakli reduktor va zanjirli uzatma vositasida harakatga keltiriladi. Yuritmaning kinematik hisobidan yulduzchaning aylanishlar takroriyligi  $n_y = 10 \text{ min}^{-1}$  va elektrodvigatel aylanishlar takroriyligi  $n_{eldv} = 960 \text{ min}^{-1}$ .



### 3.2-shakl. Yulduzchali konveyer yuritmasi:

1-elektrodvigatel; 2-ikki pogonali-silindr – chervyakli uzatmali reduktor; 3-zanjirli uzatma; 4-yulduzchali konveyer

Umumiy uzatish nisbatini hisoblaymiz:

$$i_{us} = \frac{n_{eedy}}{n_y} = \frac{960}{10} = 96.$$

Uzatmalarni hisobga olsak,

$$i_{us} = i_{t.u} \cdot i_{ch.u} \cdot i_{zu};$$

$i_{t.u}$  – silindr-chervyakli reduktordagi silindrik tishli uzatmaning uzatish nisbati;

$i_{ch.u}$  – reduktorda chervyakli uzatmaning uzatish nisbati;

$i_{zu}$  – zanjirli uzatmaning uzatish nisbati;

$$i_{t,u} \cdot i_{ch,u} = i_r .$$

U holda tavsiyadan zanjirli uzatma uchun  $i_{z,u} = 3$  ni tanlaymiz,

$$i_r = \frac{i_{um}}{i_{zu}} = \frac{96}{3} = 32.$$

Silindr-chervyakli uzatmalar uchun tezyurar pogona – silindrik tishli uzatmaning uzatish nisbati

$$u_T = \sqrt[5]{i} = \sqrt[5]{32} = 2 ,$$

$2 \leq u_T \leq 3,15$  shart bajariladi.

Sekinyurar pogona – chervyakli uzatma uzatish nisbati

$$u_s = \frac{i}{u_T} = \frac{32}{2} = 16 .$$

Shartni tekshirib ko‘ramiz:

$$8 \leq u_s \leq 63 .$$

Zanjirli uzatmaning uzatish nisbati

$$i_{zu} = \frac{i_{um}}{i_r} = \frac{96}{2 \cdot 16} = 3 ,$$

$$\text{bu yerda } i_r = i_{t,u} \cdot i_{ch,u} = 2 \cdot 16 .$$

Yuqoridagi uzatish nisbatlarini qabul qilishimiz reduktorming uzatish nisbatlarining optimal qiymatlarini va xatolik 0 bo‘lishini ta’minlaydi (xatolikni hisoblashni ta’labalarga mustaqil bajarishga tavsiya etamiz).

## MAVZU BO'YICHA GLOSSARIY (IZOHLI LUG'AT)

**Bir pog'onali reduktor** – bir just tishli, chervyakli uzatma g'ildiraklaridan tuzulgan bir ilashmali reduktor. Chervyakli reduktorda shesterna - yetakchi g'ildirak vazifasini chervyak bajaradi.

**Ensiz g'ildirak** – eni  $B$  kichik bo'lgan tishli g'ildirak. Ensiz g'ildirak eni  $B$  ning bo'luvchi diametri  $d_1$  ga nisbati bilan aniqlanadi. Odatda, ensiz g'ildiraklar g'ildirak tayanchlariga nisbatan konsol (tayanchdan tashqarida) joylashgan hollarda  $\Psi_{bd}$  g'ildirak materialining qattiqligiga qarab eni kichik qiymatlar  $\Psi_{bd} = 0,45 - 0,55$  oraliqda tanlanganida bo'ladi. Demak, ensiz g'ildiraklarda g'ildirak eni bo'luvchi diametridan 2 baravar kam bo'ladi.

**Gorizontal reduktor** – reduktor vallari gorizontal tekislikda joylashgan bo'ladi.

**Ikki pog'onali reduktor** – uzatmalar soni ilashishlar jufti 2 ta bo'lgan tishli, chervyakli reduktor. Justlarda reduktor vallarining kinematik parametrleri – aylanishlar takroriyligi (burchak tezligi) pagona bo'yicha o'zgaradi.

**Ikkilangan oqimli reduktor** – quvvat oqimi bir just uzatmada ikkita bir xil shesterna va g'ildiraklar vositasida harakat uzatsa, uzatilayotgan burovchi moment (quvvat) oqimi ikkiga bo'linadi. Ikkilangan oqim silindrik ikki pagonali reduktorda amalgalashiladi.

**Ikkilangan sxemadagi silindrik reduktor** – ikki pog'onali silindrik reduktoring pog'onalaridan birining ilashma uzatmasi just (qo'sh) shesterna va tishli g'ildirakdan tuzilgan bo'ladi.

**Yoyilgan sxemadagi (sxemada tayyorlangan) reduktor** – ikki pog'onali silindrik reduktor oraliq vali o'ttada, yetakchi va yetaklanuvchi vallari ikki chetda joylashgan bo'ladi.

**Kenglik koefitsienti** – g'ildirak enining koefitsienti  $\Psi_{bd}$  yoki  $\Psi_{ba}$  – g'ildirak qalinligini bo'luvchi diametr yoki o'qlararo masofaga nisbati nazarda tutilgan.

**Konsentratsiya koeffitsienti** – yuklanishning konsentratsiya koeffitsienti  $K_\beta$  ( $K_{H\beta}$ ,  $K_{F\beta}$ ) nazarda tutilgan.

**Minimizatsiya** – qiymatlarning eng kichik minimal bo‘lishi.

**Motor-reduktor** bir korpusda elektrosvigatel va reduktor tayyorlangan agregat.

**Nomenklatura** – nomlar, atamalar, terminlar majmui. Masalan, reduktor turlarining nomenklaturasi – reduktor turlarining majmu.

**O‘qdosh reduktor** – yetakchi va yetaklovchi vallarining o‘qlari bir chiziqda joylashgan reduktor.

**O‘qlararo masofa diskretligi** – diskretlik lotinchadan «diskretus» – uzilishli, bir necha qismidan iborat degan ma’noni bildiradi, ya’ni diskretlik shunday qiymatki, ularning orasida boshqa qiymatlarning chegaraviy sonlari bo‘ladi. O‘qlararo masofa diskretligida son qiymatlari aniq sonlar bilan chegaralangan, ya’ni: 40,50,63,80 va h.k.

**Oraliq val** – ikki pog‘onali silindrik reduktorlarda o‘rtacha, ya’ni yetakchi va yetaklovchi vallar orasida joylashgan val.

**Reduktor** – alohida agregat ko‘rinishida tayyorlangan tishli yoki chervyakli uzatmalardan tayyorlangan va aylanma harakatni dvigatel validan ishchi mashina valiga uzatadigan mchanizm.

**Reduktor pog‘onasi** – reduktor vallarida harakat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi. Ikki pog‘onali reduktorlarda harakat ikki pogona bo‘yicha o‘zgaradi.

**Sekinyurar pog‘ona (val)** – ikki pogonali reduktorlarda tezligi kam bo‘lgan pogona (val).

**Teng mustahkamlik sharti** – ikki va undan ko‘p pogonali reduktordagi ikki va undan ko‘p bir xil juft detallar mustahkamligining tengligi. Odatda, bir xil material tanlash, proporsional koeffitsientlar va boshqa konstriktiv-texnologik yechimlar qo‘llash bilan amalgaloshiriladi.

**Tezyurar pog‘ona (val)** – ikki pogonali reduktorlarda tezligi ko‘p bo‘lgan pogona (val).

**Tor (ensiz) reduktor** – kenglik o‘lchami B uzunligidan sezilarli kichik bo‘lgan reduktor. Tor (ensiz) reduktorlar hosil qilishda g‘ildirak enining kenglik koeffitsienti kichik olinadi.

**Uzatish nisbati** – quvvat oqimi yo‘nalishida yetakchi valning aylanishlar takroriyligi (burchak tezligi) ni yetaklanuvchi val aylanishlar takroriyligi (burchak tezligiga) nisbati, ya’ni

$$i = \frac{n_1}{n_2} = \frac{\omega_1}{\omega_2}$$

Reduktorlarda, odatda,  $i > 1$ .

**Uzatish nisbatini taqsimlash** – reduktor yoki yuritma umumiy uzatish nisbatini har bir pogona bo'yicha taqsimlashda pogonalarining har biri uchun uzatish nisbatining optimal (yoki tavsiya etilgan) qiyamatlari aniqlanadi.

**Uzatish soni** – GOST 16532-70 bo'yicha tishli g'ildirak tishlari sonining i shesterna tishlari soniga nisbati,

$$u = \frac{z_2}{z_1}$$

Uzatish soni faqat bir juft tishli g'ildiraklar uchun taalluqli bo'ladi. Uzatish sonini ko'p pogonali reduktorlar uchun qollash noto'g'ri. Bunday hollarda uzatish nisbati ishlataladi.

**Vertikal reduktor** – vallari vertikal tekistikda joylashgan reduktor.

## QO'LLANMADA KELTIRILGAN REDUKTORLARNING BELGILANISHI

MP – planetar uzatma asosidagi motor reduktor (17-b.).

MKS<sub>VT</sub> – konussimon silindrik, tezyurar pog'onasi vertical joylashgan reduktor asosida yaratilgan motor-reduktor (15-b.).

MKS<sub>2VT</sub> – bir pog'onali konussimon va ikki pog'onali silindrik uzatmalardan tuzilgan, tezyurar vali vertical bo'lgan uch pog'onali reduktor asosida yaratilgan motor-reduktor (6 b.).

KS – konussimon – silindrik gorizontal reduktor (8,13-b.b.).

KS2 – bir pog'onali konussimon va ikki pog'onali silindrik uzatmalardan tuzilgan uch pog'onali gorizontal reduktor (8,16-b.b.).

KS<sub>2VT</sub>, KS<sub>2VT</sub> – 200–63-bir pog'onali konussimon, ikki pog'onali silindrik, tezyurar vali vertical joylashgan uch pog'onali reduktor. Sekinyurar pog'ona o'qlararo masofasi 200 mm, reduktor uzatish nisbati 63 (5, 6-b.b.).

KSh – konussimon enli («коиническая широкая») gorizontal reduktor (12-b.).

KSh<sub>S</sub> – konussimon enli sekinyurar vali vertical b o'lgan reduktor (12-b.).

KS – konussimon – silindrik gorizontal reduktor (13-b.).

KS<sub>V</sub>S – konussimon – silindrik, sekinyurar vali vertical b o'lgan reduktor (13-b.).

KS2 – bir pog'onali konussimon uzatmali va ikki pog'onali silindrik uzatmadan tuzilgan uch pog'onali gorizontal reduktor (16-b.).

KS<sub>2S</sub> – bir pog'onali konussimon, ikki pog'onali silindrik uzatmalardan tuzilgan oq'dosh sxemali gorizontal reduktor (16-b.).

ChS – chervyaki - silindrik gorizontal reduktor (8, 20-b.b.).

ChS2 – bir pog'onali chervyakli va ikki pog'onali silindrik uzatmalardan tuzilgan gorizontal reduktor (20-b.).

S – silindrik gorizontal reduktor (7,8-b.b.).

S2 – silindrik ikki pog'onali, yoyilgan sxemali gorizontal reduktor (33-b.).

S3 – silindrik uch pog'onali, yotilgan sxemada tayyorlangan gorizonttal reduktor (8-b.).

S<sub>V</sub> – silindrik bir pog'onali vertical reduktor (7-b.).

S2S – silindrik ikki pog'onali, o'qdosh sxemada («цилиндрическая соосная») tayyorlangan gorizontal reduktor (9,36-b. b.).

S2Sh – tezyurar pog'onasi ikkilangan («цилиндрический 2-ступенчатый широкий редуктор») silindrik 2 pog'onali gorizontal reduktor (8, 36-b. b.).

S2S<sub>V</sub> – silindrik ikki pog'onali o'qdosh vertical reduktor (9-b.).

SCh – silindrik – chervyakli reduktor, tezyurar pog'onasi silindr tishli, sekinyurar pog'onasi chervyakli uzatmali reduktor (21-b.).

S2S<sub>VN</sub> – o'qdosh sxemali va sekinyurar pog'onasi ichki ilashmali reduktror («цилиндрический двухступенчатый редуктор в соосной схеме и с внутренним зацеплением на тихоходной ступени Ц2С<sub>ВИ</sub>», 38-b.).

---

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Проектирование механических передач: Учебно справочное пособие для втузов. С.А. Чернавский, Г.А. Снесарев, Б.С. Козинцов и др. 5-изд., перераб. и дополн. – М.: «Машиностроение», 1984. 560 с.
2. Н.Ф. Дунаев, О.П. Леликов. Конструирование узлов и деталей машин. Изд. 4-е. перераб и дополн. – М.: «Высшая школа», 1985. 416 с.
3. Н.Ф. Дунаев, О.П. Леликов. Детали машин. Курсовое проектирование – М.: «Высшая школа», 1984. 326 с.
4. Курсовое проектирование деталей машин. М.: «Машиностроение», 1988. 416 с.

---

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>I BOB. REDUKTORLAR VA MOTOR-REDUKTORLAR.....</b>	<b>5</b>
1.1-\$. Reduktorlar va motor-reduktorlarning umumiylar sharhi hamda belgilanishi..	5
1.2-\$. Silindrik reduktorlar .....	6
1.3-\$. Konussimon reduktorlar .....	11
1.4-\$. Konussimon-silindrik reduktorlar .....	13
1.5-\$. Planetar reduktorlar .....	16
1.6-\$. Chervyakli reduktorlar .....	17
1.7-\$. Chervyakli-silindrik va silindr-chervyakli reduktorlar .....	20
1.8-\$. Motor-reduktorlar.....	22
1.9-\$. Reduktorlarning asosiy parametrlarini tanlash.....	23
<b>II BOB. REDUKTOR POG'ONALARI BO'YICHA UMUMIY UZATISH NISBATINI TAQSIMLASH.....</b>	<b>31</b>
2.1-\$. Reduktor uzatish nisbatini taqsimlash bosqichlari .....	31
2.2-\$. Silindrik ikki pogonali reduktorlarning uzatish nisbatlarini taqsimlash...33	33
2.3-\$. Planetar reduktorlarning uzatish nisbatlarini taqsimlash.....44	44
2.4-\$. Konussimon-silindrik ikki pogonali reduktorlarning uzatish nisbatlarini taqsimlash.....	47
2.5-\$. Chervyakli-silindrik reduktorlarning uzatish nisbatini taqsimlash.....52	52
<b>III BOB. YURITMA POG'ONALARI UZATISH NISBATINI TAQSIMLASH.....</b>	<b>53</b>
3.1-\$. Reduktorlarning uzatish nisbatlarini jadval yordamida aniqlash.....53	53
3.2-\$. Yuritmaning umumiy uzatish nisbatini taqsimlash.....56	56
1-ilova. Mavzu b o'yicha glossariy (Izohli lu g'at).....63	63
2-ilova. Qo'llanmada keltirilgan reduktorlarning belgilanishi.....66	66
Foydalanilgan adabiyotlar .....	68

## *O'aydlar uchun*



**M.M. KURGANBEKOV, A. MOYDINOV**

**REDUKTORLARNING POG'ONALAR  
BO'YICHA UZATISH NISBATINI OPTIMAL  
TAQSIMLASH**

Muharrir: A.Ziyadov

Texnik muharir: N. Ismoilova

Komputerda  
sahifalovchi: A. Moydinov

Nashr. lis. AI №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 12.10.2011-y.  
O'chami 60x84<sup>1/16</sup>. «Times New Roman» harfsida terildi. Shartli b.t. 4,5.  
Nashr b. t. 4,3. Tiraji 100. Narxi shartnoma asosida. 165-sonli buyurtma.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.  
Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.